




Bugungi she'riyat muxlislari O'zbekiston xalq shoiri Mahmud Toir ijodini biladi va qadrlaydi. Uning she'rlari asosida xalqimizning qator atoqli hofizlari tomonidan aytiladigan qo'shiqlar ham muxlislari yuragiga yaqin. Mahmud Toir Toshkent viloyatining Parkent tumanida tug'ilib, kamol topgan. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Toshkent viloyati bo'limining rahbari.

MAHMUD TOIR

UCH DOSTON



90784/543/6
T-60.

MAHMUD TOIR

UCH DOSTON

559052

Шорин А. Ф., Полушкин Н. А., Вохминцев М. П.
Исследование поселения Алабуга I (хутор Андроник)
в лесостепном Зауралье
// Археологические открытия Урала и Поволжья. — Сык-
тыкар, 1989. — С. 165—167.

№ 90029
2 № 1656

НПО ВКП 16.08.90

ЕКЛ 5.4

FARG'ONA DAVLAT
UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI
Q'ZBKKISTONF Y'ZMOKH VA
KATAGLOGLASH BO'LIMI

Toshkent - "Q'ZBKKISTONF Y'ZMOKH VA
KATAGLOGLASH BO'LIMI

84(5Y)6
T 60

Toirov Mahmud

Uch doston/ Mahmud Toir, — T.:
O'zbekiston, 2006. — 96 b.

ISBN 978-9943-01-000-0

ББК 84(5Y)6

OQIB KETGAN ARMONLAR



"Mahmud Toirov yaqin-yaqinlarda Parkent shoiri edi. Bugun u o'zbek she'riyatining zabardast peshqadam vakillaridan biridir. Bunga u o'zining yorqin she'rlari bilan erishdi. Uning so'nggi yillarda e'lon qilgan she'rlari va dostonlari chuqur grajdalik pafosi bilan sug'orilgan", — deya yozgandi O'zbekiston Qahramoni, zabardast va zahmatkash olimimiz Ozod Sharafiddinov. Darhaqiqat, yaxshi she'rning o'z ofobi, o'z daryosi, o'z qudrati bo'ladi. U sizga ergashmaydi, siz unga asir bo'lasiz.

Qo'lingizdagi bu mo'jazina kitobga O'zbekiston xalq shoiri Mahmud Toirning turli yillarda yozilgan uch dostoni jamlangan. Dostonlarning har biri millatimiz atqli adiblarning samimiy e'tiroflariga sazovor bo'lgan. Ular sizni ham befarq qoldirmaydi, degan umiddamiz.



© «O'zbekiston» NMIU, 2006- y.

BESHIGINI TOG'LAR TEBRATGAN SHOIR

Tinib-tinchimagan olimlar qilni qirq yorib, yetti uxlab tushimizga kirmagan g'aroyib mo'jizalardan bizni ogoh qilmoqdalar.

Yaqinda yapon va nemis olimlari birgalikda rang, nur, ovoz va hidlarning og'irligini o'lchaydigan moslama yaratdilar.

Tabiatda mavjud bo'lgan jamiki hidlarning, ranglarning, ovozlarning og'irligi bir-biridan keskin farq qilargan ekan.

Hamma narsa, jonli, jonsiz, yer, daraxt, odamlar, suv, havo, hayvonlar, parrandayu darrandalar o'zlaridan hid taratadilar. Ularning salmog'i bir xil emasligini apparat isbot qilib berdi.

Bu favqulodda kashfiyotning parfyumeriya sanoatidan ko'ra she'riyatga ko'proq aloqasi borgan o'xshab tuyuldi.

Boshqa sohalar qatori she'riyatning ham o'z tosh-tarozusi, har bir baytning o'z salmog'i, vazminligi — vazni bor.

Chinakam san'atkor shoir yaratgan she'rlardan bahoriy bog'lar nafasi, saraton qizdirgan toshlardan qaynoq oftob bo'yi, sharsharalar to'zonidan daryo isi anqib turadi.

Ushbu maqolani yozishimga tog'li bir shoirming dostoni sabab bo'ldi.

Parkent poytaxtimizning biqinginasida. Bu manzilda buyuk insonlar qadam izi qoldirganlar. Bu tog' so'qmoqlaridan Iskandar Zulqarnayn o'lgan degan rivoyatlar bor.

Bobur quvg'inga uchragan paytda shu tog'lardan makon topgan. Unga hamroh bo'lgan Hofiz Ko'ykiy Hindistongacha uni kuzatib qo'ygan.

Buyuk G'afur G'ulom har gal Parkentda dam olib qaytganda, «Bechora o'pkamga Parkent havosidan zaparka qilib kelyapman» deb kulib qo'yardi.

Qo'limga parkentlik shoir Mahmud Toirovning "Oqib ketgan armonlar" degan dostoni tushib qoldi. Men bu shoirming she'rlarini juda yaxshi ko'rardim. Dostoni ham albatta yaxshi yozilgan bo'lishi kerak, deb o'sha zahotiyiq

o'qishga kirishdim. Boshimni ko'tarmay bir zarb bilan o'qib chiqdim. Ochig'ini aytsam, huzur qildim. Tog' havosidan nafas olgandek bo'ldim.

Bunaqa dostonni jilg'alarning shaffof suvidan ichgan shoirgina yozishi mumkin, degan xulosaga keldim.

Fikran teran, hikmatga moyil ijodi ko'pchilikning husni tavajjuhini o'ziga qaratgan shoirming boz ustiga yana qaytagan muxlisi bo'lib qoldim.

Uning hammaga yoqqan dostonida nazm bilan nasr almashinib turadi.

Shoir qadim dostonchilik an'alarini uyg'otib yuborgandek bo'ldi. Uning o'rtanib kuylagan faryodi nazmdan nasrga o'tganini sezmay qolamiz. Go'yo hali ham she'r o'qiyotganga o'xshayveradi.

Mahmud zavq-shavqqa to'lgan baxshi bo'lib Alpomishlar, Barchinoylar, Go'ro'g'lilar, Zulfizarlar davrasida o'tirib, qulog'iga popuk taqilgan, munchoqlar osilgan do'mbrasini kayf bilan tebratib-tebratib chertayotgandek bo'ldi.

Xalq dostonchiligiga e'tibor kuchaygan, baxshilar qadr topayotgan ayni paytda Mahmudning bu dostoni baxshilarimizga jo'razozlik qildi.

Said Ahmad,
O'zbekiston Qahramoni, xalq yozuvchisi

MUQADDIMA

*Yaxshilar, aytingim rivoyat emas,
Ellar aro kelgan hikoyat emas.
Alamim allalab qo'ysam tunlari,
Qalamimning tongda tomar xunlari.
Haqiqat chirog'i g'am bo'lib porlab,
Soyga olib borar meni yetaklab.
Boqsam suvda soymas, faryodlar oqar,
Toshlar dodlariga o'zlarin yoqar.
Suvlar har bir toshga ursalar boshin,
Toshlar yulduz qilib sochar ko'z yoshin.
Barimdan tutadi, suvlar so'zlaydi,
Tovonimdan o'pib toshlar bo'zlaydi.
Men ham elda bir oqinman, qaytayin,
Eshitganim, ko'rganimni aytayin.*

O'-o'-o' birodarlar, shunday qilib, bir g'amgin qissa aytmogga jazm etdim. Avvalroq aytmogchi edim-u, qo'lga qalam olsam dilim to'kildi, jo'shmadim. Yozdim, dilim o'kindi, yolg'on qo'shmadim. Zero, rostdan tonib, yolg'ondan qonib bo'lmas ekan.

— Kimning dardidan so'zlaydirlan, qay manzilni ko'zlaydirlan? — dersiz ehtimol. O'z elimdan, yaxshilar, pichoqni o'zga urmasa baxshi bo'larmi, baxshilar!

Qarshimda bir yigit o'tiribdi. Lablari titraydi, yuragi yig'laydi. Yig'lamay bo'ladimi? Axir u bir kunda uyini oftobday yoritib, bag'rini cho'g'day kuydirib yurgan yoridan ayrilib qoldi. Nafaqat yoridan, toychoqdek igr'ishlab, o'ngiga o'tgan o'g'ilchasidan, shamolday pildirab bo'ynidan quchgan qizchasidan ayrilib qoldi. Qanday qilib?!

Vah, buni bilib bo'lsa edi... Ular oqqan suvga bu qo'llar to'r bo'lmasmi edi? Agar ular shu to'rdan ham o'tib ketsalar, bu ko'zlar ko'r bo'lmasmi edi?...

Qishning so'nggi oyi, o'sha mash'um qora kunda yomg'ir yog'ardi. Yo'q, yo'q, osmon yig'lardi. Go'yo yuz berajak fojeadan xabardor edi. Dilxun kun edi, dilgir kun edi.

Gulbahor o'g'li Mirshavkatni yetaklab, qizi Madinani ko'tarib uydan chiqdi. Urishibmi, arazlabmi — bu yaratganga ayon. Uyda eri yo'q edi.

— Hoy, bolasi tushmagur, nabiralarinmi ivilib, yomg'irda nima qilib yuribsan? Eringga aytsang-ku, minib yurgan mashinasida qo'yib ketadi-ya, o'jariging qolmadi, qolmadi, bolam-a?!

— Ha, qizim, xafa ko'rinasan? Aytishib qoldinglarmi?... Hechqisi yo'q. Turmushda nimalar bo'lmaydi, bolam... Agar onasi tirik bo'lganda... Agar otasi tirik bo'lganda... Albatta, uni shunday qarshi olgan bo'lardi. Ular yo'q. Ular bu dunyoni erta tark etganlar.

Ko'zda yosh, dilda g'ash bilan yo'lni uzaytirib yurishni eb ko'rmagan ayol, soyni kesib o'tib, qirg'oqning u betidagi qarindoshlarinikiga borishni xayol qildi. U bolalarining birin bag'riga bosib, birini etaklab, shivalab turgan yomg'irday dili to'kilib, soy bo'yiga tushib bordi. Soyda suv ko'p edi. O'kingan, faryodi soy suvidek sharqirab turgan ayolda jahl ustun keldi. Ortga qaytishni or bildi.

Avvallari sakrab o'tib yurgan toshlardan bolalarini navbat bilan olib o'tmoqchi bo'ldi. Qizchasini ko'tarib, bir toshdan o'tdi, ikkinchisidan, uchinchisidan... Qahri ko'zida uchqunlab turgan ona oyog'i tagidagi toshlar yomg'irda sirpanchiq bo'lib qolganini unutgandi. To'rtinchi toshga sakradi... Oyog'i toyib, yiqilmoqdan o'zini arang tutib qoldiyu, lekin bolasi qo'lidan chiqib ketdi. Shiddat bilan oqib yotgan soy ham shuni kutib turgandek, qizchani qo'g'irchoqdek o'ynatib ola ketdi.

— Madina, bolam.

Ona o'zini suvga otdi. Vodarig'... Bu soyni, bu toshlarning ona-bolada ne qasdi bor ekankim, Gulbahorning boshidan tirqirab qon o'tila boshladi. Lekin, u buni sezmasdi.

— Madina! Qizim!... Mirshavkat!... O'g'lim!... Ona qichqirardi, lekin soyni shovqini uning faryodini yutib

yuborardi. U qizini ko'zdan yo'qotdi. Jon holatda o'g'liga qarab initildi. Bir xarsangga yopishdi. Lekin, suvning shiddati zo'r keldi.

— Mirshavkat, o'g'lim, ehtiyot bo'li...

Bir zumda singlisini yo'qotib qo'rgan oqib ketayotgan onasini ko'rgan to'rt yashar bola dod solib, soy qirg'og'i bo'ylab chopa boshladi.

— Mirshavkat, o'g'lim!... Madina, qizim!...

Ona hushidan ayrilib borayotgan edi. U tomonga qo'lib cho'zib oqib ketayotgan onasiga bola yetolmayotgan edi. Mirshavkatning murg'ak tasavvurida suvga tushsa, uni chorlayotgan onasiga yetib oladigandek tuyuldi. Bolakay o'zini suvga otdi...

Evo... Ming yillarda ne-ne ko'chliklar, to'fonlar, ne-ne jonlar oqqan ko'hna to'polon soyi bir zumda yuz berguvchi bunday fojeani ko'rmagan edi.

Baxtiqaro onani, norasida go'daklarni toshdan-toshga urib, oqizib borayotgan soy go'yo o'zi ham dodlab borayotgan edi. Yorab, suv ham gapirmikan? Ha, yaxshilar, uning faryodiga quloq tuting-a?... U bag'rda oqib borayotgan onadan o'pkalanayotgandi.

*Yerga bossang tovoning,
Kuydirguvchi cho'g'midi?
Manzilingga borsang, ayt,
O'zga yo'llar yo'qmidi?*

*Suvni bir kaltak bilan,
To'rt taraf bo'lib bo'lmaz.
Tiriklik o'zi baxt-ku,
Shunchaki o'lib bo'lmaz.*

*Zamin uzra oqaman,
Borliqqa hayot bo'lib.
Nechun farzand ko'rganding,
Ketsang shunchaki o'lib.*

*Madinangni oqizib,
O'zim yetolmay qoldim.
Qo'llarim yo'qda, ona,
Axir tutolmay qoldim.*

*Darding kinga aytganding,
Qay jafodiling tildi?
Ko'zlaringdan oqqan qon,
Yuzimni qaro qildi.*

*Sen ketdin-ku bag'rinda,
Fig'on, faryoding qoldi.
Toshlarga boshin urib,
Butun avlodning qoldi.*

*Madinang oqib ketdi,
Oridan ketding o'zing.
Mirshavkat qirg'oqdaydi,
Ko'rib turgandi ko'zing.*

*Qo'lingni chorlab nechun,
Soylarga solding sado?
Bu dunyoda bormikan,
Ayt, sendek baxtiqaro?*

*Jismu jonning tosh ezib,
Oqib ketayotibsan.
Ohing bilan meni ham,
Yoqib ketayotibsan.*

*Yerga bossang tovoning,
Kuydirguvchi cho'g'midi?
Manzilingga borsang, ayt,
O'zga yo'llar yo'qmidi?*

O', birodarlar, endi toshlar aytarini ham bir eshitilg. Ularning ohi ham dilni tiladi, toshlar ham so'zlay biladi:

Savlar kelar bu tog'ning,
Boshida abad qormish.
Norasida go'daklar,
Dodi bizni tars yormish.

Suv oqizdi, biz ezdik,
Murg'ak edi jussalar.
Endi bizni ezadi,
Bizdan og'ir g'ussalar.

O'sma ketar, qosh qolar,
Bizlar shu soyning toshi.
Oqib ketguvchi suvlar,
Asli ko'zimiz yoshi.

O'g'ling ko'zingda yulduz,
Qizginang oymasmidi?
Yong'ir yig'lab turmasa,
Oyog'ing toymasmidi?

Baxti qaro Gulbahor,
Baxti qaro go'daklar.
Endi achinib yig'lar,
Qaydadir tosh yuraklar.

Qahri qattiq, qahri tosh,
Qiyosni bizdan olar.
Aying, odamzod qachon,
O'ziga nazar solar?

Boshi toshga tegmayin,
Qilmaydi-da, e'tibor.
Yo'lda yotgan bir toshga,
Qoqilsa, tosh gunohkor.

Toshlar aro bir ona,
Ikki go'dak yotmishdir.
Qarindoshlar qon qaqshab,
Bir-birga tosh otmishdir.

Suvlar shovqini aro,
Qayg'uning sadosi bor.
«Bolan, qaydasan» degan,
Bir ona nidosi bor.

Bir ota bo'zlab kelar,
Shu soyda dunyosi bor.
Umrini qaro qilgan,
Ko'zlarin qarosi bor.

Gulbahor, ko'ksingdagi,
Ozormidi, o'qmidi?
Farzanding olib o'tsang,
O'zga yo'llar yo'qmidi?

Bir-birini tutolmay, ne bo'lganini anglab yetolmay, goh
suv yuzida qalqib, goh suv ostida oqib sho'rliklar uvol
ketdilar.

Mirsolih uyiga kelsa xotini, bolalari yo'q. Onasidan
so'ragandi, hech nima demay chiqib ketganligini aytdi.
Odatdagidek «onaning uyiga ketgandir» degan xayol bilan
beparvo yuraverdi.

Lekin, ertasiga ham, indiniga ham ulardan darak bo'lmadi.
Ota axtarib borgani yo'q. Izlab borganda bilgani shu bo'ldiki,
ona-bolalar u yerga bormagan ekan. Butun qarindosh-urug'
oyoqqa qalqdi.

Axtardilar charx urib nolon,
Axtardilar ko'zda yosh bilan.
Ko'rdim demas hech bitta inson,
Axtardilar egik bosh bilan.

*Qizim, desa kuydi qarog'i,
O'g'lim, desa o'rlandi dili.
Yori qani, uyin chirog'i,
Peshonaga mushtladi qo'li.*

*G'amlar ota ko'ksini tildi,
Tirnog'idan firqiradi qon.
Opalari sochini yuldi,
Singlisidan topolmay nishon.*

*Kunlar o'tdi motamga botib,
Tonglar otdi anduhdan so'zlab.
Qalam qoldi qog'ozda qotib,
Bu faryodni yozolmay bo'zlab.*

Ha, azizlar, bu faryodni bitmoq mushkul. Hamonki yozishga jur'at qilibsan, uni joningdan yo'nilgan qalamni bo'g'zigacha qonimga to'lib turgan yuraging — siyoxdonga botirmoq lozim. Shu bois oradan yil o'tib ketse hamki, qo'limga qalam olishga botinolmadim. Dostonning davomini yozolmadim. Lekin, tushlarimda o'zlarining murg'ak tasavvurlarida bu bevafo dunyoni, uning ba'zi toshmehr odamlarini la'natlab oqib ketayotgan farishtadek pok go'daklar menga qo'lhalarini cho'zaverishadi. Ular: «Bizni qutqaring, bizlar kabilarini qutqaring! Kiyim-kechakning, ayshu ishratning, molu dunyoning quli bo'lib qolayotgan bag'ritosh ota-onalar malomatlaridan, qahru g'azabidan qutqaring!...» deya hayqirayotgandek tuyulaveradi.

Yana qo'lga qalam olaman. Endi yozmaslik gunoh. Bu faryodni eshitib, bu fojearning mohiyatini anglab, toki arzimaz turmush tashvishlari tufayli bir nafasda g'azab ostonasiga borib qoluvchi ayrim kimsalar, shu ostonadan bir qadam narida ajal turganini, bir marta berilgan umrlari uvol ketishini, ortidan sha'nlarga abadul abad malomat va ta'na toshlari otilajagini, qolaversa, o'zlarini halok qilish bilan dunyoning azob-uqubatlaridan qutulib bo'lmasligini,

aksincha, jigargo'shalarini bir umr armon va faryodlar ummoniga tashlab ketishlarini o'ylab ko'rsalar zora...

Keling, yaxshilar, endi dostonning davomini eshiting.

Dodi toshlarni yondirib, ko'z yoshi suvlarga qorishib ikki farzandi o'rtasida oqib ketgan Gulbahorning holi ne kechdi?

Har bir otguvchi tongning bandalariga hadya qilguvchi quvonch va tashvishlari bor. Kimga to'y, kimga aza deganlaridek, tarozining bir pallasida shodlik, ikkinchisida qayg'u turishi rostdir. Nazdimda quyosh ham har tong falakda baxt va baxtiyorlik ramzi bo'lib yuz ochadi, kulgu sochadi. Lekin, kun bo'yi odamzod boshiga tushgan qayg'u va anduhlardan qon yutib, bir barkash cho'g' timsolida shomda kuyib ufqqa bosh qo'yadi.

Oradan bir kun o'tdi. Goho oyog'i ostidagi narsani ko'rmay, unga qoqilib yurguvchi odamlar bu fojeadan bexabar qolishdi. Tongning tumori falakka sochib yuborgan kokilini tog'larga taratib yuz ochgan quyosh soy bo'yida qoniga qorishib yotgan, kiyimlarini toshlar burdalab tashlagan, suvda shishib ketgan ayolni ko'rdi-yu, bir nafas tog'lar tepasida qotib qoldi. Quyosh nurlari ko'z yoshga aylanib, xira tortib, goh xijolatdan bulutlar ortiga berkinib, goh ma'yus yuz ochib choshgohda Gulbahor qoshiga yetib keldi-da, o't sochib turaverdi. Aslida u ko'kdan xayqiradi:

— Hoy, g'ofil bandalar! Ko'rmaysizmi, ko'ringiz kelmaydimi? Axir ayol-kul! Ona-kul! Ahvoliga bir qarang, toshlar yig'layapti. U ham kechagina siz kabi baxtiyor edi. Mehrsizlikning, jahlning qurboni bo'lgan u ayolga rahmingiz kelsin. Toshhurak bo'lmang, uni toshlar orasidan oling!

Quyoshning ohi odamlarga yetdi, uni ko'rib qolishdi. Lekin, yoniga yaqinroq borishga jur'at qilisholmadi. Odatda tiriklar doimo mayitdan qo'rqishadi. Bir-biriga xabar berib, tegishli odamlar kelishib, ayolni olib ketguncha kun qorayib qoldi. Kun o'sha kuni erta qoraydi. Uyatdan qoraydi, faryoddan qoraydi...

*Biz o'lmaymiz asli, yoronlar,
Mehrslizlik o'ldirar bizni.
O'ldiradi tuhmat, yolg'onlar,
Hasad avrar har birimizni.*

*Ota degan so'z lazratidan,
Goho shirin ayshu ishratlar.
Ayol ayro o'z iffatidan,
Ko'zimizdan tomar minnatlar.*

*Goh gunohdan yoqamizdir chok,
Goho g'iybat mayidan mastmiz.
Tazarrular aylolmagay pok,
Qiyomatda maysadan pastmiz.*

*Tog'lar titrar kulfatimizdan,
Azada ham oshga to'ymaymiz.
Yer yorilar uyatimizdan,
Bizlar esa qalqib qo'ymaymiz.*

*Biz o'lmaymiz, toshbag'irlar bor,
Paymonamiz erta to'lmishdir.
Yo'qotamiz, so'ng yig'laymiz zor,
Gulbahorlar shunday o'lmishdir.*

Kelganlar ayolni ko'rib nadomat qilishdi. Tegishli joylar voqeadan ogohlantirildi. Bir hafta o'tdi hamki, jasadning egasi topilmadi. Shu orada uning suratini ayoli, bolalarini qidirib yurgan Mirsolihga ham ko'rsatishdi.

— Yo'q-yo'q, bu mening ayolim emas, — dedi u. Chunki ayol shishib ketgan, uning kimligini aniqlash qiyin edi. — Axir bu qanday qilib mening ayolim bo'lsin? Unda o'g'lim qani, qizim qani?! Bu ayol rasmdan musulmon ayoliga o'xshamaydi...

Bu savolga har kim turlicha javob berdi. Yuqib, tarab musulmon mozoriga ko'madigan mard topilmadi. «Toqqa

o'ynagani, sayrga chiqqanlardan bo'lsa kerak», — degan fikr hammaga ma'qul keldi. Shu kuni momo Yer nafratdan titradi, osmon azobdan ingradi.

*Tobut bo'lgan har yog'och yig'lar,
Nega yig'lamaysiz, odamlar?
Qurib qolgan qayrag'och yig'lar,
Nega yig'lamaysiz, odamlar?*

*Ne qilayapsiz, ey ahli nodon,
Begonamas, ayol — musulmon,
Yer yig'laydi, yig'laydi osmon,
Nega yig'lamaysiz, odamlar?!*

*Soyda ikki bolasi qolgan,
Ikki ko'zin qarasi qolgan,
Har bir toshda nolasi qolgan,
Nega yig'lamaysiz, odamlar?!*

*Odam Ato ohi yer yorar,
Momo Havo ko'kda to'lg'onar,
Farzandidan, ayting, kim tonar,
Nega yig'lamaysiz, odamlar?!*

*Bunday o'lmoq o'limdan yomon,
O'lsang, topilmasa qabriston,
Diyonat qaydadir, qaydadir imon,
Nega yig'lamaysiz, odamlar!*

Gulbahorni shunday ko'mishdi. Lekin qarindosh-urug'larining, erining bormagan joyi, axtarmagan yeri qolmadi. Ularning ohi osmonga yetib, dodi toshni yorsa hamki, o'jiz edilar.

Gulbahor ikki bolasi bilan yo'qolgan kunning o'n to'rtinchisi edi. Uning jasadi topilgan joydan ikki-uch

Ming afsus va nadomat bilan qarindosh-urug'lar, qishloq
ahli go'daklarni yerga qo'yishdi. Shundan keyin soy bo'yidan
topilgan ayol jasadi «Gulbahor emasmikan? degan xayol
har dildan o'ta boshladi. Gumonlar suronga aylandi.
Qabristonni ochishga qaror qilishdi. Ha, baxti qaro ayol
Gulbahor bo'lib chiqdi.

*Soylar ichra sochlaring sochib,
Nima topding o'zingdan qochib,
Qon yig'lashdi qabringni ochib,
Bu qanday o'limdir, Gulbahor?*

*Hamma siqan dunyo senga tor,
Aytmay ketding, qanday darding bor,
Jasading ham ayladilar xor,
Bu qanday o'limdir, Gulbahor?*

*O'g'ling endi o'ngingda yotar,
Qizing so'lib so'lingda yotar,
Qabristonda yo'lingni kutar,
Bu qanday o'limdir, Gulbahor?*

*O'g'ling minar toychoq'i yig'lar,
Qizingning qo'g'irchoq'i yig'lar,
Otasining so'rog'i yig'lar,
Bu qanday o'limdir, Gulbahor?*

*Ostonangga armon ko'mildi,
Bir uydan uch inson ko'mildi,
Ne deb o'lding, aytegin, kim bildi,
Bu qanday o'limdir, Gulbahor?*

Gulbahorning jasadini akasi, opalari erining uyiga
berishmadi. Singlisining o'limidan keyin barcha
tushgan xor-zorlik ularni karaxt qilib qo'ygan edi.
Uyiga olib borishgandagi faryodning barcha
2-

QABUL QILISH YIG'ISH VA
KATALOGLASH SO'LINI

chaqrim quyida soyda mashinalarga shag'al yuklayotgan
ekskavatorchi suv bo'yida qumga beligacha ko'milib,
yuztuban yotgan yosh bolani ko'rib qoldi. U onasining
ortidan o'zini suvga otgan Mirshavkat edi.

*Faryod bosdi butun qishloqni,
Yig'ladilar qushlar, daraxtlar.
Kim ko'tarar bunday qiynoqni,
Yig'ladilar darddan karaxtlar.*

*Ota o'g'lin bosdi bag'riga,
Nabirasin quchdi buvisi.
So'ng chopdilar soyning qa'riga,
Qani ona, qani singlisi?*

*Butun qishloq qalqdi oyoqqa,
Yoyildilar soyga, qirg'oqqa.
Suv kechdilar ahli tmonlar,
Pisand qilmay sovuq, qiynoqqa.*

*Izladilar jonlari halak,
Ohlaridan o'ttanar falak.
Topishdilar ikki tosh aro,
Yotar edi Madina-malak.*

*Tishlab olib chuchuk tilini,
Mushga tugib ikki qo'lini.
Oh, o'n to'rt kun kutdi Madina,
Otasini kelar yo'lini.*

*Darmoni yo'q dodlar solgani,
Madori yo'q qo'lga olgani,
Ota behush, aka yo'l kutar...
Qaro yerga birga borgani.*

qog'oz yonib ketishi aniq. Faqat «Yo parvardigor, hech bandangni boshiga bunday qaro kunlarni solmagaysan, buningdek azobdan, xorlikdan o'zing saqlagaysan!» — deya Yaratganga iltijo qilishdan o'zgasiga o'rijimiz.

O'sha kuni Gulbahorning to'rt opasi aytib-aytib bo'zlaganlarini eshitgan odamlarning hammasi ko'ziga yosh olishdi. Buni biz baholi qudrat oqqa ko'chirdik. Zero, xalqda shunday ibora bor, kishi baxtsiz odamlarning holiga boqmay, baxtiyorligining qadriga yetmaydi.

Birinchi opa:

*Sochlari soyda qolgan,
Gulbahorim, ne gilding?
Qoshlari yoyda qolgan,
Gulbahorim, ne gilding?*

*Boshdagi bolu parim,
Topilmas zebu zarim,
Uvol ketgan jigaram,
Gulbahorim, ne gilding?*

*Qizin tutolmay qolgan,
O'g'lini chorlab olgan,
Soylarga suron solgan,
Gulbahorim, ne gilding?*

*Seni kimlar o'ldirdi,
Gulim, erta so'ldirdi,
Qaro yerning bag'rini,
Kim sen bilan to'ldirdi?*

*Dod daslingdan, dod, o'lim,
Tanglayda qotdi tilim,
Dog'da qoldirgan singlim,
Gulbahorim, ne gilding?*

Ikkinchi opa:

*Peshonam sho'r ekan-o,
Ko'zimda to'r ekan-o,
Bir ko'nglingni so'rmagan,
Opang ham ko'r ekan-o...*

*Mirshavkat yodgor edi,
Madinang mador edi,
Uvol ketdi ikkisi,
Bir-birdan dildor edi.*

*Kelmay ota yoniga,
Kelmay ona yoniga,
Ma'yus mo'z o'rangan,
Ruhining fig'oniga.*

*Bu o'lim qanday o'lim,
Yursam yonadi yo'lim.
Kimning yoqasin tutsin,
Qaqshagan ikki qo'lim?*

Uchinchi opa:

*Otangdek asramadik,
Onangdek asramadik,
Qiyomatda ne deymiz,
Kuningga yaramadik?*

*Qoshing qayrilma yoyda,
Osmon uzoq, oy qayda?
Voy jigaram, jigaram,
Jonning qoldimi soyda?*

*Dor bizning boshimizda,
Or bizning boshimizda,
Afsusu armon oqar,
Ko'zda yoshimizda.*

To'rtinchi opa:

*Bolishinga g'am botar,
Tonginda motam otar,
Qay ona mozorida,
Qiz, o'g'lin olib yotar?*

*Dardinga yetmas hech kim,
Ko'zimdanda qonlar ichgum,
Ko'ksimga uray desam,
Bir pichoq tutmas hech kim.*

*«Kenjam qaylarga ketdi?»-
Tushimda izlar otam,
«Boshingga kimlar yetdi?»
Tushimda bo'zlar onam.*

*Otang uchun bo'zlayin,
Onang uchun bo'zlayin,
Voy jigirim, jigirim,
Seni qaydan izlayin?*

Bu kabi dil o'rtar faryodlar bilan Gulbahorni qabris-
tonga olib ketishdi. Gulbahor o'n to'rt kunlik ayрилиqdan
keyin shirin-shakar o'g'il-qizining sovuq jasadlarini
o'zining sovuq bag'riga oldi. Suvda tutolmagan bolalarini
qaro yer bag'rida tutdi va diydor qiyomatga qoldi. O'sha
kuni qaro kunda mudhish voqeaning guvohi bo'lganlarning
hammasi yig'lashdi. Bu dunyo bevafofigidan, shu bevafo
dunyoda insonning goh bir jonzotcha qadri yo'qligidan
yig'lashdi. Odamlar Gulbahor va uning norasida
farzandlarining bebaxtligidan ozor chekdilar. Chunki bu
fojea tufayli ular o'zlarini topishgandi. Qabristonda bir nafas
egilgan bosh, gunohkor qalb, titragan vujud bilan Oллоh
qarshisida yolg'iz qolib, o'zlarining savobdan ko'ra ko'proq
gunoh ostonasida ekanliklarini anglab yetgandilar. Ular bu

o'tkinchi dunyoda toshbag'ir bo'lib qolganlaridan, ola-
bolani, aka-ukani tanimay, faqat o'zlarini o'ylovchi
xudbinga aylanib qolganlaridan yig'lardilar.

*Kech ochilgan shu ko'zlar uchun,
Mayli yig'lang, yig'lang, odamlar!
Kech bukilgan shu tizlar uchun,
Mayli yig'lang, yig'lang, odamlar!*

*Yuzin chayib kurtaklar yig'lar,
Shovullashib teraklar yig'lar,
Toshbag'ir, toshyuraklar yig'lar,
Mayli yig'lang, yig'lang, odamlar!*

*Ma'yus boqqan maysaga qarang,
O'zin tutib turibdi arang,
Madinani maysam deb yig'lang,
Mayli yig'lang, yig'lang, odamlar!*

*O'g'lonini o'ldirguvchi el,
Gulin erta so'ldirguvchi el,
Yer bo'lmasmi, bu kun qaro yer,
Mayli yig'lang, yig'lang, odamlar!*

*Toshlar ezgan ayol tanasi,
Axir buning kimga ta'nasi?
Har bir ona elning onasi,
Mayli yig'lang, yig'lang, odamlar!*

*Qabristonni quchoqlab, yig'lang,
Qalbingizni taroqlab yig'lang,
Bir pok imon so'roqlab yig'lang,
Mayli yig'lang, yig'lang, odamlar!*

*Bir nafasga ko'zingiz yuming,
Nafsingizni qabriga ko'ming,
Haqni taning, xayolga cho'ming,
Mayli yig'lang, yig'lang, odamlar!*

*Oftob misol beminnat yashab,
Yo hiloldek nurdan par to'shab,
O'tkazgin deng, halol rizq oshab,
Mayli yig'lang, yig'lang, odamlar!*

*Biz ham kelar shu makon uchun,
Bevaqt o'lgan har inson uchun,
Uyg'ongan shu pok vijdon uchun,
Mayli yig'lang, yig'lang, odamlar!*

Gulbahorning qabriga tuproq tortildi. Imomning hazin tilovati odamlarning boshlarini yanada xam qilib qo'ydi. Yigitlar tobutni to'ntarib, joyiga eltib qo'yishdi. Qabr og'ziga torgan guvalaklardan ortib qolganini ham olib borib qo'yidilar...

Odamlar o'zlarining ko'ngil yoshlariga g'arq bo'lib, qabristondan oqib chiqib ketdilar. Mirsolih esa shu yosh daryosiga cho'kib qolgandi. Baxtsiz ota qalbini armon kemirardi. Aslida uning armonlari ham soyda oqib ketgandi. Uning bu dunyosi soyda oqib ketgandi. U ayoli, farzandlari qabriga cho'k tushib, yuz bergan mudhish fojea uchun taqdirini la'natlardir.

*Bo'zlasam, bo'zim yonar,
Ko'z yoshdan ko'zim yonar,
Uch qabr orasida,
Dodimdan to'zim yonar.*

*Orim kinga ham kerak,
Zorim kinga ham kerak.
Boshinga ne qaro kun,
Solding, ey zolim falak?!*

*Mirshavkatim, polvonim,
Madinam, mehribonim,
Qanday o'lim topdingiz,
Kuydi ikki jahonim.*

*Qo'limdan berdim sizni,
Yo'limdan berdim sizni.
Qahri qarog'da tig'im,
Tilimdan berdim sizni.*

*Gulbahorim, nodonim,
Orzularim, yolg'onim,
Qay shaytonga qul bo'lding,
Kul qilding xonumonim.*

*Ko'zim sirib yosh qoldi,
Ko'ksim yorib tosh qoldi,
Nasibanga toabad,
Zahar bo'lgan osh qoldi.*

Yaxshilar, bu faryod, bu g'amnok qissa aslida poyoniga yetdi. Lekin nima uchundir unga nuqta qo'ya olmadim. Sababi, ko'z o'ngimdan Gulbahor ketmadi. U xayolimda goh soy bo'yida odamlar yoniga borishga jur'at eta olmayotgan, toshlar ezib tashlagan holda, goh o'zgalar mozorida yashikka solingan, xorlangan yo'sinda, goh qabristonda ikki bolasini uyg'ota olmayotgan ona qiyofasida gavalanaveradi. Uning bezovta ruhi meni tinch qo'ymasdi.

— Nechun o'zingga bunday o'limni ravo ko'rding, Gulbahor? Norasida go'daklarning uvoli kimni tutadi, Gulbahor?

— Men yanglishdim! Lekin siz yozing, o'zgalar mendek xorlanmasin. Tiriklikning qadriga yetmaslik bu baxtsizlikning ibtidosidir. Inson uchun o'limdan oson ish yo'qligini men juda kech angladim...

Mirsolih akamlarni qabristondan olib keting? Men u kishini bir umr malomat va armon botqog'iga tashlab qo'ydim. Siz yozing, hech kim mendek yanglishmasin!

Beixtiyor yodimga muqaddas Hadislarning birida aytilgan ushbu ibratli hikmat keldi: «Ogoh bo'lingki, umringizning qolgan qismi yashab turgan kuningizning qolgan qismi kabitdir».

Yana xayolan Mirsolih qoshiga qaytaman: Ayoli, uvol ketgan go'daklari qabriga cho'k tushib, bu dunyoni unutgan, bebaxt otani o'rnidan turg'izaman. Kech ochilgan ko'zlarning yoshlari qurimagan. Bu yoshlar hali-beri qurimaydi ham. Kechagina yulduz kulgan bolishiga endi mixlar qadalgan, kechagina o'g'ilchasining yumshoq qo'llari quchgan bo'yniga endi malomatning bir shoda tikani osilgan.

— Xudoyim, — deyman, — hech bandangning boshiga bu baxti qaro ota kabi o'zini oqlolmaslik azobini solmay gaysan?

Qabrison... Bu dargohning sukunatini buzishga hatto qushlar ham iymonishadi. Bunda ochilgan gullar ham gul bo'lib yaralganidan afuslanayotgandek tuyuladi kishiga. Chunki ular ko'z yoshlaridan suv ichib ko'karishadi. Mirshavkat, Madina kabi ochilmay xazon bo'lgan norasidalarining qonlaridan rang oladi. Gulbahor kabilarning armoni bo'lib ochiladi, bu gullar!

Qabrison qayg'ularga eshik, armon va musibatlarga beshik bo'lgan muqaddas joy. O'yab qolaman. Rostdan ham qabrison muqaddasmi? Axir kuni kecha otasi yoqasini tutishga or qilmagan badbaxt ham, umr bo'yi onasiga ro'shnolik ko'rsatmay, ayoli, bolalari ko'z yoshini ichkilikka qo'shib ichib, nafsining qurboni bo'lgan do'zaxi ham, molidunyonining quliga aylangan, tanasini pullab xalqning tavqi la'natiga duchor bo'lib, erta xazon bo'lganlar ham, ota meros hovli-joyini talashib bir-birini qurbon qilganlar ham, arzimaz turmush mojarolariga asabi chidamay yengiltaklik qilgan, yoshi ulug'larning beminnat koyishi, tejab-tergashiga dosh bermay o'ziga o't qo'ygan, bo'yniga arqon solgan, og'u ichgan kimsalar ham shu yerda yotibdi-ku!

Qabrison muqaddas! Bu sukunat og'ushida yotganlarning aksariyati halol mehnatni, poklikni, mehru oqibatni, el qadriini tumordek e'zozlab kelganlar. Izlariga duolar to'kilgan. Xudo bergan umrini shukronalik bilan o'tkazanlardir. Bu dunyoni aslida ana shunday insonlar tutib turibdi.

*Odam Ato, Bobojonim,
Momo Havo, Momojonim,
Qodir egam, mehribonim,
Yoshin yashab o'tsin odam!*

*Dunyo qolar, bizdan qolar,
Ham bahoru kuzdan qolar,
Joyimiz bir bizning borar,
Yoshin yashab o'tsin odam!*

*Mehr dilda bir mohitob,
Iymon esa bo'tsin oftob,
Qadamida unib savob,
Yoshin yashab o'tsin odam!*

*Madinadek gul so'lmasin,
Mirshavkatlar hech o'lmasin,
Paymona erta to'lmasin,
Yoshin yashab o'tsin odam!*

Tong otayapti. Kelayotgan bahordan elchi bo'lib esayotgan iliq sabolar shoxlarda mo'r'alab, iymonib turgan kurtaklarning yuzlarini mayin silab qo'yishadi. Jilmaygan kurtaklarni ko'rgan qushlar shoxdan shoxga qo'nib, hayotga, tiriklikka, bahorga olqish aytishadi. Quyosh ham olamga yorug' kun va'da qilib, tog'lar ortidan osmonga bir quloqch nur sochib yuboradi...

Men esa qo'lda qalam, to'kilgan dil bilan g'amgin qissamning og'ushida o'tiribman. Aslida bu voqeadan so'ng yillar o'tdi. Lekin, ko'hna soy qirg'og'iga borishga yuragim zirqiraydi. Sababi quloqlarimga hamon Gulbahorning faryodi, bolalarning nolasi eshitilaveradi. 1995-yilning 24-fevral kuni — muborak ramazon oyining qutlug' juma tongida bu faryod bayoniga nuqta qo'yar ekanman, so'nggi iltijoim barcha olamning sarvari Yaratgan egamning o'ziga bo'ldi.

XOTIMA

*Tun o'tdi qissamning fig'oni bilan,
Yo rabbim, bir tiniq tonglar tilayman,
Qish o'tdi qahri, qahratoni bilan,
Yo rabbim, bahoriy ranglar tilayman.*

*Ko'zlarda mehrning munavvar nuri,
Tandirning taftidek qo'lni yondirsin,
Baxt inson zotining bebaho duri,
Sururi suroni dilni yondirsin.*

*Saodat sultoni o'zingsan, egam,
Jismimdagi jonning farmoni senda,
Beshiklar bo'zlasa, o'zindan shubham,
Ul rost dunyolarning yolg'oni menda.*

*Va lekin karaming kengdir Oллоhim,
Nurli nigohingda jannatlar sasi,
Senga intilganning bo'lsin, ilohim,
«La ilaha illolloh» so'nggi nafasi.*

*Tun o'tdi bir mungli navolar bilan,
Tong otsin bir nurli duolar bilan,
Kim ketdi xazondek vidolar bilan,
Qolganga umr ber vafolar bilan.*

1996- yil.

OTAMNING O'KINCHI



QALBDAN QAYNAB CHIQQAN QO'SHIQLAR

«Parkent»ning lug'aviy ma'nosini so'rasang, «parilar kenti», «parilar maskani» degan ma'noni bildiradi deb javob berishadi. Bu talqinning ilmiy jihati nechog'lik to'g'ri ekanini bilmayman-u, lekin men talabalik yillarimda birinchi marta Parkentga borganimda bu gapning chinligiga ishonch hosil qilgan edim. Negaki, farishtalar, parilar yashasa, shunaqa go'zal, shunaqa barkamol maskanda yashaydi-da! To'g'ri, kevinroq nima sababdandir bu go'shadan ketib qolgan. Hozir esa bu yerlarda o'sha parilarning qanotlari tushib ketgan zuryodlari yashaydi. Men har gal Parkentga borganimda, bugun u yerda istiqomat qilayotgan odamlar parilar avlodidan ekaniga ham ishonib qaytaman. Negaki, ularning hammasi go'zallikka tashna va oshna. Lekin ular bu go'zal maskanning ne'matlaridan bahramandgina bo'lib qolganlar emas, balki o'z mehnatlari bilan, o'z muhabbatlari bilan bu go'shaning go'zalligini asrab, boytib, go'zalligiga go'zallik qo'shib kelmoqda. Parkent, u yerdagi Oqsoq-ota, Zarkent, So'qoq, Kumushkon, Boshi qizil soy, Nordanak va yana bir qator joylar shu qadar so'limki, ular hamisha ajoyib shoirilarning vatani ham bo'lgan. Chunki bu maskanda yashab, uning suvini ichib, havosidan nafas olib shoir yoki adib bo'lmaslikning o'zi gunoh... Hayriddin Sultonov, Sharifa Salimova, Orifxon Odilxonov... Ularning nomi xalq o'rtasida yaxshi tanish va ardoqli. Mana, endi Mahmudjon Toirov...

Mahmudjon ham bolalikdan adabiyotga havas qo'yib, jonajon Parkentning havosidan oziqlanib ulg'ayadi. «Quvonch quchgan qirdagi lola edim, chanqaganda shodliklarni ichar edim, shalolaning shabadası edim, men» deydi shoir bolaligi haqida. Yoki «boshim, tegram, ko'nglimda quyosh edi, shabnam ichgan maysalar dildosh edi» degan misralarni tizadiki, bular Mahmudjondagi shoirlikning ildizlarini tasavvur qilishga yordam beradi. Mahmudjon Milliy dorulfununni bitirdi, turli idoralarda ishladi. Albatta, shu yillar mobaynida ham shoirlicha qolgan, she'rlar yozgan, lekin

kamtarlikmi, andishami yoki boshqa yana biron sababmi ularni elu yurt oldiga olib chiqishga xalaqit berdi. Faqat keyingi o'n-o'n besh yildagina Mahmudjon yozganlarini kitob holiga keltira boshladi. Birin-ketin chop etilgan olii-yetti she'riy to'plam, «Haqni tanib», «Saylanma» kabi kitoblari bugungi she'riyatimizda o'z o'rini egalladi. Mana, endi «Otlarning o'kinchi» dostoni...

Bu asarda ham uning boshqa she'rlariga xos ikkita xususiyat bor: birinchidan, doston qalbdan qaynab chiqqan, zo'r samimiyat bilan yozilgan. Ikkinchidan, uning mazmuni o'ziga xos. Shoir hamma narsaga o'z nigohi bilan qaraydi, o'z fikrlarini aytishga, o'z tuyg'ularini ifodalashga harakat qiladi. Bu intilish esa uning she'rlarida ham, dostonida ham quyma misralarda, hikmat shakliga burkanib namoyon bo'ladi.

«Haq so'z Haqning hukmidir,
Tig'i tegar yurakka»

Yoxud:

«Nafs g'olib kelgan joyda ko'ngil ko'zi ko'r bo'lur»

Yana:

«Maydonga tushgan mard manglayini qashimas...»

Yana bir misol:

«Axir, Olloh otani
Osmon qilib yaratgan.
Jannatdan chiqqan gulga
Bog'bon qilib yaratgan.»

Doston mavzusi tevaragida qalam tebratar ekan, shoir odamning tabiati, undagi fazilatlar va qusurlar to'g'risida mulohaza yuritadi, ulardagi norasolliklarni ko'rib, o'zining taassuflari va o'kinchilarni bayon etadiki, ular ham o'zining

teranligi va dardchilligi bilan chinakam she'riyat namunalari esh bo'lib ketadi.

*Bu dunyo tamoshagoh, o'yinchisi ko'p ekan,
Aytilgan har yolg'onning suyunchisi ko'p ekan.
Kuyib-kuyib so'zlasang, kulib-kulib tinglashar,
Gohida odam zoti tepilguvchi to'p ekan.*

Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Endi uch-to'rt og'iz gap doston to'g'risida. Uning o'ziga xosligi — mazmunida, shoir sotqinlik to'g'risida fikr yuritadi. Uning otasi mashhur usta o'tgan, ajoyib imoratlar qurgan, shogirdlari ko'p bo'lgan. Biroq u keksayganda shogirdlaridan biri unga xiyonat qiladi. Bu — otada bitmas jarohat qoldiradi. Shoir dunyoda sotqinlikning turi ko'p ekanini ko'rsatadi. Eng yomoni shundaki, sotqinlik faqat bir odamga kulfat, g'am-g'ussa keltirmaydi, undan tarqalgan halqalar ko'pchilikning oshiga zahar soladi, hayotini notinch qiladi va yuraklarda o'kinch tug'diradi. Shoir bu tuyg'ularni yorqin ochgan va sotqinlikni jirkanish bilan tasvirlab bergan.

«Otamning o'kinchi» dostoni yaxshi shoirning yaxshi asari! Yaxshi asar muborak bo'lsin, aziz she'riyat muxlislari!

*Ozod Sharafiddinov,
O'zbekiston Qahramoni*

*Otam To'xta qori Toir o'g'li
xotirasiga bag'ishlayman*

Bir mo'min otaxon Xizr alayhissalomga ro'baro' kelib qolibdilar. Shunda otaxon benihoya shodlanib:

— Yaratganga shukr, sizga meni yo'liqtirdi, haqimga duo qiling, — debdilar. Xizr alayhissalom duo qilibdilar.

— Endi yana bir iltimosim bor. Farzandlarim haqiga ham duo qilsangiz.

Xizr alayhissalom debdilar:

— Yo'q, farzandlaringiz haqiga o'zingiz duo qiling, men omin deb turayin. Zero, ota-onaning duosi Xizrning duosidan ham yuksak turadi.

Hadisidan.

MUQADDIMA

*Bola edim, bir baxtli bola edim,
Quyunch quchgan qirdagi lola edim.
Shalolaning shabbodasi edim, men,
Ota-onam xush bodasi edim, men.
Quloq yozsam osmonni quchar edim,
Chanqaganda shodlikni ichar edim.
Go'zallikdan entikardi bu olam,
Baxtli edi dunyodagi bor odam.
Kapalakning qanotlarin silardim,
Qaldirg'ochning ko'zlarida kulardim.
Yurmas edim men qo'yinga tosh solib,
Tillashardim chumolini tutvolib.
Boshim, tegram, ko'nglimda quyosh edi,
Shabnam ichgan maysalar dildosh edi.
Orzu otlig' oq otlarim bor edi,
Qayg'u menga, armon menga yot edi.
Nogoh, bir kun, yuzin ochdi bir tuyg'u,
Bilolmadim xiyonatni yo qayg'u.*

*Tuyg'u emas, yuz ochgan odam edi,
Bolalikda birinchi nalam edi.
Bu odam na boyu, na oqin edi,
Nazdimda oddiygina sotqin edi.*

I

Namuncha qovog'ingizdan qor yog'masa? — dedilar uyga xomush kirib kelgan otamni qarshi olgan onam.

— Onasi, men o'z kasb-korimni o'rgatib, yana yaxshi bir shogirdni kamolga yetkazdim deb, xushnud yurgandim. Aslida, bag'rimga ilon asragan ekanman.

— Nega bunday deysiz? Xudoga shukr qiling, bir emas, bir nechta shogirdlaringiz bor. Hammasi ko'rkam, chiroyli imoratlar qurib, elu yurtning koriga yarab turibdi.

— To'g'riku-ya, lekin bir kun kelib, ulardan biri keksayganimda, menga xiyonat qiladi, sotqinlik qiladi, deb o'ylamagandim!..

— Sotqinlik degani nimasi? Axir, u sizni qanday sotishi mumkin? Qolaversa, sizni nimangizni sotadi, kimga sotadi?

— E, onasi, gap shunda-da. Menda-ku sotadigan hech vaqo yo'q. Lekin qorining quli bo'lgan odamdan qo'rqish kerak. Bundaylar nafs yo'lida nafaqat ustozini, Vatani sotishdan ham qaytmaydilar!.. Endi senga bor gapni aytam... Odatdagidek bir odamning imoratini tiklayotgan edim. Kun bay haq to'layotgandi. Bugun tongda borsam:

— Usta, endi sizni ishlatolmaymiz, — dedi imorat egasi.

— Tinchlikmi tushunmadim? — deya hayratimni yashira olmadim.

— Siz keksayib qolgansiz... sekin ishlarkansiz... To'g'ri, menga ham qiyin, sizga bu gaplarni aytish. Nima qilay, axir, o'zingizning shogirdingiz kelib aytdi... «Usta qarib qolgan, ishlatmanglar, o'zim kelib tezlik bilan imoratingizni bitirib beraman», dedi. Qolaversa, kuz ham eshik qoqdi. Xafa bo'l-maysiz, bizga ham tezroq bitgani ma'qul...

— Onasi, ishonsang bu so'zlarni eshitib turgan joyimda qalqib ketdim! Ko'zingga yosh keldi... Shu paytgacha qarib qolganimni his qilmagandim. Birdan cho'kib qolganday bo'ldim. Asbob-uskunamni yig'ishtirib, uyga qandoq kelganimni bilmayman. Menga shogird tushganda qo'lida tesha ushlashni bilmagan yigit qaysi yuz bilan shunday dedi? Xo'sh, endi ayt-chi, bu xiyonat emasmi?! Agar men keksaygan bo'lsam, og'rimni yengil qilish o'rniga, bola-chaqamning rizqini qiyadimi, ko'mamak?... Bugunoq uyiga boraman, yuziga tupuraman bunday shogirdni!..

— Qo'ying, adasi, unday qila ko'rmang. Shaytonning so'ziga kirmang. Ustoz o'z shogirdini qarg'asa, bolasini qarg'agan bilan barobar... Yaratganning o'zi ko'rib turgandir bu holni... Och qoladigan zamon emas. Xudoning o'zi mehribon...

Otam ortiqcha bir so'z demay uyga kirib ketdi. Lekin men uchib yurgan osmonimdan tushib qolgandek bo'ldim. Beg'ubor ko'nglimga ilk bor xiyonat, sotqinlik degan sovuq so'zlarning ko'lankasi tushdi. Otamning yig'laganini eshitib, mening ham yig'lagim keldi. Qani, endi birdan ulg'ayib qolsam-da, otamning qo'lidan arra-teshasini olib, shu imoratni o'zim qurib bersam. Afsuski...

Bolaligim bog'iga

Kulin sochdi xiyonat.

Ko'z ochmagan ko'nglimda

Yuzin ochdi xiyonat.

Sotqinlikning sadosi

Qulog'imni tars yordi.

Yuzlarimni yondirib,

Ko'zimdan yong'ir yog'di.

Men ham xuddi otamdek

O'ychan bo'lib qolgandim.

Men nimaga qoqilib,

Men nimadan tolgandim?

Qayda, axir dushmanim,
O'zi yo'g'-u, yodi bor.
Nechun uning nogahon
Yuragimda dodi bor?

Otamga armon bo'lgan
Dardmi yo'alam edi?!
Otamning o'qinchilari
Mening ham nalam edi.

Xiyonatning yoqasi
Tushsa edi qo'limga.
Sotqinlikni o'zimcha
Mahkum etdim o'limga!

Sotqinni sotib bo'lsa
Qul qilib sotar edim.
Sotqinni otib bo'lsa
O'ylamay otar edim.

Bo'yimga bo'y ulanmay,
O'yimga o'y ulandi.
Beg'ubor ko'nglim ko'rki
Bulutlarga belandi.

Qanday qilib otamning
Ko'nglini olsam derdim.
Bir so'z topib malhamday
Yoniga borsam derdim.

Bormadim, borolmadim,
O'z-o'zimga so'zladim.
Otam panoh so'rgan zot—
Xudoyimga bo'zladim.

Otang bormi, xiyonat,
Onang bormi, xiyonat?!
Aytgin, sening ustingdan
Kimga qilay malomat?!

Sotqin kimning bolasi,
Sotqin kimning jolasi?
Jisimga sig'may borar
Yuragimning nolasi.

So'rab ko'nglim xun bo'lar,
Shogird o'zi kim bo'lar?
Ustoz qadrin bilmagan
Chirog'i yo'q tun bo'lar!

So'rab ko'nglim xun bo'lar,
Sotqin o'zi kim bo'lar?
Ko'karmaydi to'abad
Qarg'ishda kukun bo'lar!

Har kimga ham elining
Xush duosi darisin.
Vale sotqin bo'lsa kim,
Qarg'ishlarda qarisin.

Yomon niyat yodida
Tebratmagum qalamim.
Sotqinlarga sochgayman
Dildagi bor alamim.

Haqdan qo'rqsin har kimsa,
O'ziga nazar qilsin.
Yaxshilarga yor bo'lsin,
Yomondan hazar qilsin.

* * *

Otam o'idi dunyodan
Armonim olib ketdi.
Men ulg'aydim. Bu armon
Qalbimda qolib ketdi.

Avval shukrim, Tangriga,
O'g'il berdi, qiz berdi.
Yo'ldosh bo'ldi yaxshilar,
Nazar berdi, tuz berdi.

Ammo bir kam dunyoning,
Kam sira to'lmaskan.
Yaxshi ming yil yashamas,
Yomonlar tez o'lmaskan.

Puli yo'qqa bu dunyo
Bozorligi bekordir.
Ayshi ko'pga olarning
Ozorligi bekordir.

Tilaganing bermasa,
Tilanchiga ham azob.
Ochmasang, o'qimasang,
Tosh bilan tengdir kitob.

Har kunning o'z quvonchi,
Har kunning o'z dardi bor.
Har kunning o'z sotqini,
Har kunning o'z mardi bor.

Har tong olam qarshimda
Tilovaida tirilar.
O'sha tanish xush nafas
Yuzlarimga urilar.

Uzru kun ham yodimda
Savobga chorlab turar.
Yo'l axtarsam gohida
Yog'dudek porlab turar.

Deydi: — O'g'lim unutma,
Yolg'on yozib yashama.

So'ng ta'nalar toshida
Patdek to'zib yashama.

Dunyo dardi oldida,
Sening darding bir tomchi.
Qog'ozingga ham sig'mas,
Bu olarning quvonchi.

Haq so'z Haqning hukmidir,
Tig'i tegar yurakka.
Rahming kelsin eng avval,
Bo'zlab turgan go'dakka.

Yuzin bulut to'sganda
Oyni armon ezadi.
Haqsizlik handasini
Toshdan yomon ezadi.

Otanga armon bo'lgan
Dard edi, alam edi.
Otanning o'kinchilari
Mening ham nalam edi.

Bolalikda bag'ringa
Botgan toshlar hamon bor.
Jilmayadi xiyonat,
Sotqin kaslar omon bor.

Ajab dunyo ekan bu
Yaxshilikdan tolmaydi.
Zavoli ham ko'p ekan,
Yomonlikdan qolmaydi.

II

— O'... birodarlar, balki o'ylarsizlar, bu ne shoirkim,
doston aytisa g'amdan aytar, ko'zlardagi namdan aytar!
Netayki, taqdiriga tosh tekkan kimsalar, huzuringda qon

yig'lab tursalar? «Yozing shoir, borin yozing, ko'nglimizning zorin yozing», desalar. Aslida ham qarshisida bo'zlab turgan G'AMning yuziga parda tortib, hali tug'ilagan QUVONCHni izlab yurgan shoir qalamini o'z yuragiga sanchib qo'ya qolgani ma'qul. Zero, «banda tadbir qiladi, Olloh taqdir qiladi». Taqdirda qayg'u bitilisa ham sabrga sultonlik qilib, Yotning yamog'idan hazar qilguvchilar qancha... Aksincha, bir luqma xush taom, lahzalik lazzat, bir siqim pul uchun yetti pushtining ruhini qon qaqshatib, yetti avlodini sotib yurganlar, qancha!...

Vatanni sevmoq iymondandir, deyiladi. Vatanni sotish nimadan boshlanadi? Ko'ngilni sotishdanmi? Nafs g'olib kelgan joyda ko'ngilning ko'zi ko'r bo'ladi.

*Yozmoq oxon ko'ksingga
Quvunch gul taqib tursa.
Yuragingdan yo'l solib
Baxt seli oqib tursa.*

*Yozmoq og'ir joningdan
Ming bir alam taralsa.
Iqbol so'rsang va lekin
Peshonang sho'r yaralsa.*

*Demish asli bu dunyo
Sinov uchun maydondir.
Kimga yashash ko'p qiyin
O'zgasiga osondir.*

*Birin baxti o'zgasin
Ko'zin chiqarib kelgan.
Go'daklar bor dunyoga
Sochi oqarib kelgan.*

*Bir-bir aytisang dunyoning
Sitamiga poyon yo'q.
Doston bo'lsa ne ajab,
Yuragimda yongan cho'g'.*

*Bu anduhlar faryodi
Tug'ilgan makonimda.
Hasratli tilimdayu
Tikoni tovonimda.*

Eri xiyonat qilgan ayolning ko'zlariga ko'zingiz tushganmi? Xotini xiyonat qilgan erkakning-chi?! Ulardan ko'ngil so'raganmisiz? Ularga ko'ngil berib bo'ladimi o'zi? Xiyonatda ko'ngil bormi aslida?.. Uning yuzi, tusi qanday bo'ladi? Buni bir-biriga xiyonat qilgan ota-onadan emas, xiyonatning jabrini tortayotgan go'daklardan so'rang..

... Ular bir-birini sevishib turmush qurishgandi. Parvardigor ularga ikki qizcha, bir o'g'il ato etdi. Yangi yopilgan non isiday bir-birlarining dimog'laridan bir-birlarining mushk-anbarlari ketmasdi. Tog'lardan jildirab tushayotgan irmoqlar bir-birlariga qo'shilib ketganda ularni ajratib bo'lmagandek, er-xotinning mehr irmoqlari oila degan musaffo daryoda qo'shilib oqardi, jo'shib oqardi.

Yo'ldan shayton otliq badbaxt chiqdi. Uning qo'lida xiyonat otliq to'g'on bor edi. Bu to'g'on erning qo'li bilan mehr irmoqlari yo'lga tashlandi. Er ayoliga xiyonat qildi. Xiyonat kimlargadir oshkor bo'ldi. Ikki kishi bilgan sir, sir emas. Ayol nazdida eri vijdonini sotgandi, imonini sotgandi... Bir so'z bilan aytganda, u sotqinlik qilgandi...

Ayol bu alamga chidolmadi... Bu xiyonatni ko'tarolmadi... O'zini-o'zi yoqib yubordi. Katta qizi o'n olti, o'g'li o'n ikki, kichkina qizchasi uch yosh edi... badbaxt er bolalari bilan yolg'iz qolib ketdi...

*Bu uyda kecha-kunduz
Bo'zlashadi bolalar.
Gir aylanib onasin
Izlashadi bolalar.*

*Kattasining ohlari
To'kilganda tilidan,
Iymoni bor odamning
Qonlar oqar dilidan.*

Aya, aya, ayajon,
Uyga sig'may ketyapman.
Kunduz chopib, tun chopib,
Sizga yetmay o'tyapman.

Devordagi osig'liq
Ro'inolingiz yig'laydi.
Uy ichida charx urib
Uvolingiz yig'laydi.

Jismimizda jon yig'lar
Dasturxonda non yig'lar.
Pirolada choy yig'lar,
Yulduz yig'lar, oy yig'lar.

Sizni kunduz axtarsam,
Kunduz yig'lar biz bilan.
Uydagi gul, dov-daraxt,
Ildiz yig'lar biz bilan.

Ukajonim kulgusi
Yuzlariga sig'masdi.
Nain kulgu, bu dunyo
Ko'zlariga sig'masdi.

Chohga tushgan toychoqdek
Talpinadi siz tomon.
Tilin tishlab yig'laydi
Ko'rmaysiz-da, onajon!

Jismu jonim qaqqshatib,
Deydi bir kun nogahon:
— Otang o'lsa bilmadim,
Onang o'lsa ko'p yomon.

Oh, ayajon, ayajon,
Bo'zlayverib sil bo'ldim.
Borsa kelmas yo'llardan
Izlayverib sil bo'ldim.

Ovutolmay singlimni
Yig'laydilar dadam ham.
Boshin mushlab jonini
Tig'laydilar dadam ham.

Ko'rgim kelar ayajon
Yuzingiz, ko'zingizni.
Bizni uydan kuzatib
Yoqibsiz o'zingizni.

Qandoq go'zal edingiz,
Qandoq yonib o'chdingiz?!
Gunohimiz ne edi,
Bizdan nechun kechdingiz?

Bo'lardi-ku, ayajon,
O'ylasangiz bizlarni.
Kim oladi bag'riga
Yetim o'g'il-qizlarni.

Sizsiz dunyo qorong'u,
Xunuk ekan uyimiz.
Ezib qo'ydi bizni g'am,
O'smay qoldi bo'yimiz.

Singlim Gulshan bir tuni
Sizni yo'qlab tolgandi.
Alamidan mast bo'lib
Dadam uxlab qolgandi.

Uyimizga nogahon
Uchib keldi kapalak.
Qanotlari qip-qizil
Cho'chib keldi kapalak.

Gir aylandi boshimda,
Qo'rqdim biroz jon halak.

Singlimning bolishiga
Sekin qo'ndi kapalak.

Qaramadi dadanga,
Qaragisi kelmadi.
Kapalakjon dadamni
Nega ko'zga ilmadi?

Kapalakjon, kapalak
Sen ayamning arvohi.
U dunyodan keldingmi,
Dadamning ne gunohi?

Oh, gunohkor bo'lsalar
Yig'laydilar ne uchun?
O'ksib-o'ksib jonlarin
Tig'laydilar ne uchun?

Sizsiz aya tun uzoq,
Tonglar sira otmaydi.
Sho'rpeshona bu boshim
Bolishlarga botmaydi.

Ovutmoq-chun singlimni
Bir nima topish kerak.
Eng yaxshi o'yinimiz
Oq terakmi, ko'k terak.

Yaxshi o'yin deymiz-u,
Yig'lab-yig'lab o'ynaymiz.
Bag'rimizni ayajon,
Tig'lab-tig'lab o'ynaymiz!

— Oq terakmi, ko'k terak,
Gulshan senga kim kerak?
— Bilmaysizmi shuniyam,
Menga ayamla keya-y...

— Oq teyaymi, ko'k tea-y...
Apcha, sizda kim keya-y?
— Singiljonim menga ham
Ayam, ayamlar kerak.

— Oq terakmi, ko'k terak,
Bizdan sizga kim kerak?
— Xudo, Xudo, Xudojon,
Bizga ayamlar kerak!

Takrorlaymiz ming bora,
Yurak yara, dil pora.
Ayt, Xudojon, Xudojon,
O'linga bormi chora?

Gar oy chiqsa osmonga,
Kimning ko'ngli yorishmas?!
Yetimlarning ko'z yoshi
Quvonchga hech qorishmas.

Bu dunyoning ohlarin
Har kim tortar o'zicha.
Bu dardu g'am bormikan
Shu bolalar bo'zicha?

Bo'tadek bo'zlayotgan
Bolalarning yonidan.
Ko'zin yumib o'tsa kim
Ayrilgan iymonidan.

Uying kuysin xiyonat,
Bo'yning kuysin xiyonat.
Yolg'on dunyo senga ham
Boqiy emas, omonal!

Iymonini sotganlar,
Vijdonini sotganlar.
Go'dak ohi ko'r qilar
Yuragi tosh qotganlar.

Qaysi uyda xiyonat
Jilmayadi tunu kun,
O'sha uyga diyonat
Begonadir, bag'ri xun.

Qay uyga quyosh tushmas,
Oy boqmaydi osmondan,
Shu uyda biror kimsa
Ayrilgandir vijdondan.

Bu dunyoda yoronlar
Xiyonatning to'ri ko'p.
Bo'zlar hatto hoqonlar,
Sotqinlikning turi ko'p.

Qalamim qon qaqshaydi
Oq qog'ozning ustida.
Jonim chaqar dardlar bor
Yuragimning ostida.

Bulutlardek bir-birin
Quvib o'tadi kunlar.
Goh yomg'irmas, ko'z yoshdan
Ivib ketadi kunlar.

Bir bechora ohidan
Sarg'ayarmish oftob ham.
Tutilgan ul oy kabi
Mung'ayarmish oftob ham.

Qayg'u bilan quvonchning
Oralg'i chimdimcha.
Qishdan olib chiqmaydi
Odamzodni hech nimcha.

Ko'zin yumar kim, qachon,
Yorug' kunda yo tunda.
Cho'bir otni to'rt odam
Ko'taradi bir zunda.

Qabristonga shoklar ham
Kiradilar piyoda.
Bir nimchacha taffi yo'q
O'talar bor dunyoda.

Ota desam yodinga
Kelaverar o'z otam.
Bolalikda bo'g'zimni
Tilgan o'sha ilk nolam.

Yoshim o'tib ellikdan,
Birovdan hech kulmadim.
Qartaygan qul Xudoga
Qandoq yig'lar, bilmadim?!

Men otanni yodida
Insof yuzin ko'raman.
Rizq axtargan bandasin
Halol tuzin ko'raman.

Tilovatim to'idan
Zora ruhi shod bo'lsa.
Mangu yotar manzili
Toabad obod bo'lsa.

Dilim ezilar hamon
Otarning armonidan.
Asrasin o'zi Egam
Odanning yomonidan.

*Keling, birga tinglaylik
Bir azobning ovozin.
Cherilmay chil-chil singan
Bir hur qizning g'am sozin.*

III

*Bir qiz yashar bir uyda,
Yuray desa yurolmas.
Yigirma yil to'shakda,
Turay desa turolmas.*

*Armon degan xo'rsiniq
Tomirida oqadi.
Yolg'on degan bir og'riq
Jismu jonin chaqadi.*

*Yolg'on desa dunyoning
Yolg'oni shuncha ko'pmi?
Odamzodning nazardan
Qolg'oni shuncha ko'pmi?*

*Bir suluv qiz qosh-ko'zi
Unda ham bor yoronlar.
Yuragini yaralab
Qo'ygan faqat yomonlar.*

*Tug'ilganda Dildora,
Ziyo bo'lib tug'ildi.
Onasining ko'z yoshi,
Daryo bo'lib tug'ildi.*

*Otasiga maqtashib
Yuzini ochishmadi.
Beshigining boshidan
Sochqilar sochishmadi.*

*Qiz tug'ildi. Otasi
Sudda yurdi sudralib.
Niyati onasidan
Ketmoq edi ajralib.*

*Onaizor bolasin
Yetim bo'lsin demadi.
Sevib qurgan oilasin
O'tin bo'lsin demadi.*

*Gapirsa ham boy o'g'li,
So'z desin-da, dunyoda.
Aytmasa ham ularning
Aytganidan ziyoda.*

*Sud zalidan otasi
Bamisli ketdi uchib
Onaizor qon yig'lab
Qoldi bolasin quchib.*

*Ko'hna dunyo, bor dunyo,
Qilmading-a, or dunyo.
Shu go'dak ko'z yoshiga
Edingni sen zor dunyo?!*

*Ayolga uvol qilding,
Umriga zavol qilding.
Qoshin hilol qilganding,
Qomatini dol qilding!*

*Dunyo sening ko'changda
Yigirma yil sar-sari.
Ko'z yoshidan sarg'aydi
Ular umr daftari.*

*Har neki intiho bor,
Ibtidodan boshlanar.*

*Salomdan boshlanmasa,
Bil, vidodan boshlanar.*

*Ona borki, mehrning
Belanchagi tebranar.
Onang bo'lsa suvsiz ham
Ostonangda gul unar.*

*Farzand-chun muz ichra ham
Zunda yonolgan ona.
Qayg'ularning qatiga
Quvonch qadolg'an ona.*

*Ona dildan zorlansa,
Zamin to'lg'onar ekan.
Ayol erdan orlansa,
Toshlar uyg'onar ekan.*

*Ayol borki, oridan
Er kishi aso qilar.
Erlar borki g'ururin
Tutunga kosov qilar.*

*Quvonchining qaymog'i
Qat-qat yurgan kimsalar,
Sitamining salmog'i
Ezganni bir ko'rsalar.*

*Afsusning alangasi
Kul bo'lguncha kutganlar,
Odanning or-nomusi
Pul bo'lguncha kutganlar.*

*Savollar bor, javobi
Jonimni chimchilaydi.
Dunyo dardini xitobi
Ruhimni qamchilaydi.*

*Axir, dunyo poyoni,
Borar manzil qabrdir.
Iymoni bor insonni
Sulton qilgan sabrdir.*

*Shodligini shamolga
Sovurib yurganlar bor.
Qayg'usini qoniga
Qovurib yurganlar bor.*

*Bir bechora armonin
Qirq tuya ko'tarmaydi.
Tuyani tirik yutib
O'zgasi yo'talmaydi.*

*Savol ko'pdir, yorollar
Javobi chertilmagan.
Tirik yetim ko'rmadim
Yuragi yirtilmagan.*

*Siz keltirib dunyoga
Nima ko'rdim otajon?!
Jonni tutib jafoga
Gina ko'rdim otajon!*

*Bir qiz bo'lib silkinib,
Yerda yayrab yurmadim.
Mehrimgizga yelpinib,
Oyog'imda turmadim.*

*Siz ham, biz ham omonat,
Oy osmonda boqiydir.
Qilmas sira xiyonat
Quyosh nurga soqiydir.*

Qorda qolgan qushmasman,
Don kerakmas, otajon!
Go'sht ko'rmagan tishmasman,
Non kerakmas, otajon!

Qizim degan shonimni
Qidirib yashayapman.
Men jismimdan jonimni
Sidirib yashayapman.

Ko'changizdan tobutda
Yulduz bo'lib o'tarman!
Otasidan or qilgan
Bir qiz bo'lib o'tarman!

* * *

Yuragingda yolg'on bor,
Yonib yashay olmaysan.
Tuslanmagin, aslingdan
Tonib yashay olmaysan.

Yuzing shuvit, dilingni
Ochib yashay olmaysan.
Toshmehrsan, shu toshdan
Qochib yashay olmaysan.

Tomiringdan chiqqan qon
Ulg'aydi, inson bo'ldi.
Sen xushsan, ko'rmaysan-da,
Uning bag'ri qon bo'ldi.

Farzand irmoq, irmog'ing
Talpinadi sen tomon.
Ota bo'lsang, daryo bo'li,
Bag'ringga chorla, nodon!

Bilsang, Olloh otani
Bir tog' qilib yaratgan.
Har bir farzand qalbida
Chiroq qilib yaratgan.

Chirog'i o'chgan ko'ngil
Dunyoni xush ko'rmagay.
Go'dak tangrining guli,
Riyoni xush ko'rmagay.

Uning dilgir dilidan
Sitamini sitib ol.
Ochgil ko'ngil ko'zini,
Qo'llaridan tutib ol.

Birga bosgan qadaming
Jannatga yetaklaydi.
«Ota» desa, «bolam» de,
Tangri umring tilaydi...

* * *

Ota bo'lish sharafligi,
Asli ulug' inoyat.
Otalarni yo Tangrim,
O'zing qilgin hidoyat!

Gar otalar yanglishsa,
Farzandlar yo'l yo'qotgay.
Otalari oqil yurtning
Quyoshi xushnud botgay.

Lolalarning lablari
Sabolarda ochilgay.
Joynamozning jamoli
Duolarda ochilgay.

Otalarning iblati
Chiroq bo'lsin dillarda.
Qoqiltirish qasdida
Tosh yotmasin yo'llarda.

Vale, ko'hna dunyoda
O'y boshqa, hayot boshqa.
Gohi katta podani
Buzarkan bitta qashqa.

Oriyat elagidan
O'tolmay qolganlar bor.
Nain ota, elining
Qarg'ishin olganlar bor.

Dasturxonning boshida
Duo qilardi otam.
— Ham o'zingdan, ham eldan,
Begona qilma Egam.

Bugun otam duosin
Takrorlab turgum bot-bot.
Otam ruhi madadkor,
Otam ruhi zo'r qanot.

Axir, eldan begona
Bo'lganlarni ko'rdim, men!
O'zi tirik, la'natda
O'lganlarni ko'rdim, men!

Aytarimning davomi
Og'ir bo'lsa qaytayin.
Bu dosonni o'zgacha
Yozolmasam netayin.

IV

Ochilmaydi ko'zimiz
Tushaverib choxlarga.
Ketayapmiz dunyoni
To'ldirib gunohlarga.

Yetmish yil yashab gohi
Bitta savob olmaymiz.
Ko'rsatmagan mehrimiz
Talab qilib tolmaymiz.

Sotamiz borimizni,
Sotamiz orimizni.
Sotolmayin xunobimiz
Qishdagi qorimizni.

Mayli sotsin bandasi
Bu dunyoda topganin.
Unutmasa bo'lgani
Vatanda ko'z ochganin.

Sotib bo'lmas Vatanni,
U cho'ntakka sig'maydi.
Qalb ko'zi ko'r kimsalar
Vale, buni bilmaydi...

— O'g'lim, sen yo'qsan! Hayotmisan va yo'? Bilmadim, bu yolg'iz Yaratganga ayon. Biz onang bilan sen yomonning umrini tilay-tilay qalbimiz sham misol so'nib-so'nib borayapti. Bizning faqat jismimiz odamga o'xshaydi, bolam! Men seni yomon dedim. Ayt, juvonmarg! Yaxshi bo'lsang yurtni tashlab ketarmiding?! Bizni tashlab ketarmiding?! Biz seni qanchalik yaxshi ko'radik?! Qirq qizni qalqituvchi qaddi-qomating, guldek hunaring bor edi, ko'mamak! Biz g'afolat bandalari bolamiz ichmaydi, chekmaydi... namoz o'qiydi deb, kerilib yuravergan ekanmiz.

O, g'aflat, g'aflat!.. Yoshim oltmishdan oshdi. Nega men seni o'z jismu jonimda ko'rmay keldim. Nahot, sen menda yasharding? Men o'zimdanda xafaman! O'zimdanda nafratlanaman! Meni el taniydi, meni el hurmat qiladi, qarindosh-urug', yoru do'stlar o'rtasida obro'im yaxshi deb o'ylabman-u, bag'rimdagi bolamning ko'nglini, iymonini shay-ton o'g'irlaganini ko'rmabman!..

Ayt, o'g'lim! O'zga yurtlarda seni kutayotgan qarindosh-urug'laring, yoru do'stlaring yo'q edi-ku! Ozod o'lkada, ozod odamga ato etilgan imkoniyat va baxtning hammasi senda mujassam edi. Sendan ko'nglim qoldi, bolam! Seni onang bilan shu umidda kamolga yetkazganmidik? Qartayganda bizni eldan ayirding, yuzimizni shuvit qilding, nonko'r!

Parvardigor nola'mni senga yetkazsin, bolam! Sen yurtga qayt! Yig'lab tiz cho'k! Bo'zlab tiz cho'k! Bag'ri keng el bu, kechirguvchi el bu! Kechirmasa, yuzingga qaro surtib shu tuproqda o'll Toki, biz oxiratgacha yuzimizga qaro surtib bormaylik! O'g'lim, xiyonatkor farzandga ota-ona bo'lib qolish azobini boshiga tushganlar biladi. Men buni hech qaysi ota-onaga ravo ko'rmagan bo'lardim.

Bolam sen yo'qsan, lekin har kuni sen bilan suhbat quraman. Seni bag'rimga chorlayman. Seni yaxshi ko'raman. Yo'q-yo'q! Seni yomon ko'raman. Sen yomonim bo'lib eshikdan boshingni egib kirib kelsang-chi? Qarg'ab alamdanda chiqay, urib alamdanda chiqay! Tirikmisan o'zi? Tink bo'lsang, mening bolam bo'lsang, emaklab bo'lsang ham yurtga kelganingni ko'rishim kerak! Yo'qsa... Xudoga solaman!.. Qattiq qarg'ayman!.. Oq qilaman, nonko'r! ... Oq qilaman!..

*Ne sirlar bor o'zing guvoh,
Biz bandamiz, bizlar gumroh,
Mehribonsan o'zing, Olloh,
Dodiga yet, shu otani!*

*Afsusida alanga bor,
Oh o'zidan qilmoqda or,
Do'st-dushmanga qilmagin xor,
Dodiga yet, shu otani!*

*Yomon odam ko'kdan tushmas,
U makonsiz uchar qushmas,
Bolam yomon bo'lsin demas,
Dodiga yet, shu otani!*

*Bo'zlayverib bo'zdek bo'ldi,
Osh ko'rmagan tuzdek bo'ldi,
O'g'li o'lmay o'zi o'ldi,
Dodiga yet, shu otani!*

*Uning dardi toshdan og'ir,
Tobutdagi loshdan og'ir,
Zahar tushgan oshdan og'ir,
Dodiga yet, shu otani!*

*Qariganda kun ko'rmadi,
Oy jilmaygan tun ko'rmadi,
Oh, o'zidek xun ko'rmadi,
Dodiga yet, shu otani!*

*Bizlar yaxshi, bizlar yomon,
O'zing yersan, o'zing osmon,
Sendan imdod, sendan farmon,
Dodiga yet, shu otani!*

*Tuproq uysak, tog' bo'lmagay,
Yantoq gullab bog' bo'lmagay,
Oqpadar hech oq bo'lmagay,
Dodiga yet, shu otani!*

*Sotqin bo'lmay o'lsin o'g'li,
Boshin egib kelsin o'g'li,
Mayli, keyin o'lsin o'g'li,
Dodiga yet, shu otani!*

Ona osmon, uning og'irligi sening yelkangga tushmaydi, deyдилar. Ammo, yomon farzand dog'i, qora qilmishi osmonni ham egib qo'yarkan. Bugun yurtimizning ayrim

go'shalarida o'z ohidan o'zi o'rtanib, dilida «mening o'g'lim sotqin bo'lishi mumkin emas, men unday o'g'il tuqqan emasman», deya bo'zlab Xudoyimga nola qilayotgan onaizorlarning borligi achchiq, haqiqat. Haqiqatga tik qarash esa, hamisha ham oson kechavermaydi. Xudoning borligiga shak keltirishdan qo'rqqan odam, onadek buyuk zotni ayblashdan ham qo'rqadi. Zero, hech bir ona farzandim yomon bo'lsin demaydi. Olloh Odam Atoni, Momo Havoni yaratgandan buyon dunyoga ko'z ochgan har bir go'dak poklik, beg'uborlik timsoli bo'lib kelgan. Unda... ular... qaydan yaralgan?..

*Hamma yaxshi, yomon go'dak yo'q,
Bu dunyoda yomon chechak yo'q,
Tinglayversang yomon ertak yo'q,
Sotqinlarni kim tuqqan, ona?!*

*Kimdir tanin, kim molin sotar,
Kim bozorda hammolin sotar,
Yana kimdir jamolin sotar,
Sotqinlarni kim tuqqan, ona?!*

*O'g'il ota obro'sin sotar,
Qay qiz ona qayg'usin sotar,
Bir firibgar jodusin sotar,
Sotqinlarni kim tuqqan, ona?!*

*Bulbul sotib, zog' olganlar bor,
Qarang, bepul tog' olganlar bor,
Sabring siqib yog' olganlar bor,
Sotqinlarni kim tuqqan, ona?!*

*Iymonni ham arzon sotishar,
Vijdanni-ku, oson sotishar,
Goh yo'liga biroz tortishar,
Sotqinlarni kim tuqqan, ona?!*

*Xiyonatni bedorligidan,
Mozor yig'lar mozorligidan,
Bozor yig'lar bozorligidan,
Sotqinlarni kim tuqqan, ona?!*

*Qul sotilar, el sotilmaydi,
Gul sotilar, dil sotilmaydi,
Yurt sotishga mard botinmaydi,
Sotqinlarni kim tuqqan, ona?!*

* * *

*Qanday yozay ko'ngil zorini,
Aytgim kelar dilda borini.
Kimki bo'lsa hayotga oshiq,
Jon joniga chertgay xush qo'shiq.*

*Tongda esar hayot shamoli,
Yuz ochadi yurtim jamoli.*

*Uyg'onadi yaxshi ham yomon,
Rizqin tilar kimda jon omon.*

*Quyosh to'yib shabnamlar ichar,
Bolariga gullar bol tutar.*

*Qirga shoshar jon-jonivorlar,
Odamzodning mehriga zorlar.*

*Mingni chorlar ming bitta yumush,
Parkent soyi toshdagi kumush.*

*Jilvalari jon olib oqar,
Suv oqizgan tog'lar xush boqar.*

*Biqir-biqir qaynar buloqlar,
Yer tagida yongan chiroqlar.*

*Jismu joning poklik o'raydi,
Oy nurlari soching taraydi.*

*Sen ko'klarda uchib yashaysan,
Go'zallikni quchib yashaysan.*

*Bunda ming yil yashaging kelar,
Bunda zunda armonlar o'lar.*

*Kim tog'larda bo'lsa biladi,
Osmon yerga yaqin keladi.*

*Bunda toshlar oynadek tiniq,
Boqsang o'zing ko'rasan aniq.*

*Tirik odam tiz cho'ksin faqat,
Qay yurtida bor bundayin jannat?*

*Bog'larida bahor balqigan,
Tangri xushlab, Tangri alqagan.*

*Ey shodligim chashmasi — Vatan,
Ko'zlarimning tashnasi — Vatan.*

*Kel, jonimga o'rab yashayin,
G'amlaringni kurab yashayin.*

*Vatan, seni sotib bo'lmaydi,
Senga toshlar otib bo'lmaydi.*

*Iymoni but har odam bilar,
Onasini og'ritgan o'lar.*

*Ey mardlarga ergashgan soya,
El xurjiga yemrilmas qoya.*

*Unutmasin, yov zoti hech chog',
Bu Vataning ehlari uyg'oq!*

— O'g'lim, dostonim poyonida senga ikki og'iz so'z aytgim keldi. Zero, bu Vatanning ehlari safida sen ham borsan! Insho'lloh, kelajakda sening o'g'illaring, mening nabiralaring ham bo'lgay! Aytarimning avvalida bobolarning tafakkur durlaridan to'kilgan uch kichik hikmat nurlanib turgay. Shuni unutmaginki, «maydonga tushgan alp manglayini qashlamas». Sen esa ozodlik maydonidasan, Hurlik maydonidasan! To'rt tarafdin ham sen elning nigohidasan. Elning elagidan esa hamma o'tavermaydi, o'g'lim!

Yana deydilarki, «Toza suv loyqa suvni tindirolmaydi. Loyqa suv esa, toza suvni bir zumda loyqatadi». Ilohim, har bandani loyqa suv bo'lishdan, er kishini miyg'ovlikdan asrasin!

To'g'ri so'z kishini uyqudan uyg'otadi. Mana bu hikmatga quloq tuting-a: «Boyluk, mol-dunyo ko'pligi bilan emas, balki nafsning to'qligi bilandir». Nafsga qul bo'lish, bu shaytonga qul bo'lish demakdir. Umidvormanki, bu fikrning sharhini o'zing anglab yetgaysan, o'g'lim!

*O'zing anglab yetgaysan yana,
Oqil aytar Vatan bittadir.
Goh chapingdan o'ngingga boqmay,
Sendan so'rmay kunlar o'tadir.*

*Men onanning duosin oldim,
Shukur ko'rdi, taqdir izzatin.
Erta ketdi afsus, dunyodan,
Qilolmadim otam xizmatin.*

*Kecha otam o'kinchin tinglab,
O'rtagandi jonimni alam.
Bugun meni zorlatgan armon,
Qiyaydimi, seni ham bolam?*

Baxt bekorga boqavermaydi,
Sen yo'liga chiroq yoqmasang.
Oqqan daryo oqavermaydi,
Irmoq bo'lib o'zing oqmasang.

Yomonlikdan yiroq bo'lg'in-u,
Lek yomondan qochib yurmagin.
Sen va'dani vajo deb bilib,
Sirlaringni sochib yurmagin.

Kindik qoning tolgan tuproqqa,
Kindik qoni tomsin bolangni.
Quvonchingga quchoq ochganlar,
Malol ko'rar goho nolangni.

Yot yeguncha yoningda turar,
Shoh bo'lmasang Vatanda xok bo'l.
Ruhim ahad shod bo'lsin desang,
Ginasiz el ko'nglidek pok bo'l!

XOTIMA

Otam rahmatli bir so'zni takrorlashni xush ko'rar-
dilar: "Bolalarim, unutmanglar, Parvardigor asralganni
astraydi!" Inshoolloh shunday bo'lgay. Biz Vatanni, Vatan
bizni asragay!

Qushlar uchar, osmon to'la,
Sayyod yurar tadbir ila,
Orolmaydi u bir yo'la,
Asralganni asrar Xudo!

Qanoting yo'q, ko'kka uchma,
Yutoqib hech suv ham ichma,
Qoqilibsan, chohni so'kma,
Asralganni asrar Xudo!

Birov ko'rmas ko'zing uchun,
Nur topdingmi izing uchun,
Sado izla so'zing uchun,
Asralganni asrar Xudo!

Vatan bizda, biz Vatanda,
Bitta jonda, bitta tanda,
Mingashsak ham oq samanda,
Asralganni asrar Xudo!

Hurlik tug'i jonda tursin,
Qadr qalqib qonda tursin,
O'zbek nomi shonda tursin,
Asralganni asrar Xudo!

Demang, Mahmud g'amdand yozar,
Ko'zlardagi namdand yozar,
Biz yo'qotgan shamdand yozar,
Asralganni asrar Xudo!

Doston bitdi, shukrim bisyor,
Yaratganga zikrim bisyor,
Yurak deydi: ayigin takror,
Asralganni asrar Xudo!

OGOH BO'L, DUNYO!

SHOIRNING DAVATNOMASI

Badiiy adabiyot, xususan, she'riyat hamisha, hamma zamonlarda ham dunyoda adolat va ezigulik g'oyalari ustuvor bo'lishi uchun xizmat qilib kelgan. Shu ulug' maqsad yo'lida kurashgan. Qadimiy tarix va boy an'analarga ega o'zbek adabiyoti ham bundan mustasno emas, albatta. Bugungi kunda bizning peshqadam shoir va adiblarimiz mustaqillik bergan erkinlik va ijodiy imkoniyatlardan keng va samarali foydalangan holda, milliy istiqlol g'oyasi ruhi bilan sug'orilgan, hozirgi zamonning o'tkir va dolzarb ijtimoiy muammolarini badiiy yo'sinda aks ettirishga qaratilgan rang-barang asarlar yaratishga intilayotganliklari albatta e'tiborga molikdir.

Iqtidorli shoir Mahmud Toirovning «Ogoh bo'l, dunyo» dostoni ana shunday ijodiy intilish va ishtiyoqning o'ziga xos badiiy ifodasi sifatida maydonga kelgan.

Hayotda goho bir odamning boshqa bir odam bilan yovlashib, umr bo'yi yoqalashib o'tganlarini eshitganmiz. Davlatlar orasidagi turli nizolar ham yangilik emas. Biroq, terrorizm balosi keyingi davrda yer yuzida go'yoki bir illat kabi paydo bo'ldi va tarqay boshladi. Hozirgi kunda butun bashariyat undan talofat ko'rmoqda, aziyat chekmoqda. Bu falokat ildiz otayotgan dastlabki yillardayoq Prezidentimiz Islom Karimov jahon jamoatchiligini ogoh bo'lishga chaqirgan edilar. Afsuski, o'z vaqtida bu ofatning oldi olinmagani uchun u ko'plab mintaq va hududlarni chulg'ab ola boshladi. Haqiqatan ham, yovuz terrorchilarning na dini, na mazhabi, na millati bor. Ularning asosiy maqsadi eng muttaham va razil uslublar vositasida qonuniy hokimiyatni egallab olish, o'zlarining qabih tartib-qoidalarini o'rnatishdan iboratdir. Bunga qo'shni Afg'oniston mamlakatini qonga botirgan johil «Tolibon» rejimi yaqqol misol bo'la oladi.

Tabiiyki, tinchlik va taraqqiyot, insoniylik tamoyillariga mutlaqo zid bo'lgan bunday fojealar aqli raso har bir kishiga saboq bo'lishi, uni hushyorlik va ogohlikka chorlashi lozim.



Muallif ushbu dolzarb mavzuga murojaat etar ekan, voqealar tasvir doirasini nainki bizning yurtimiz, balki dunyo miqyosida belgilaydi. Shoir dilidan otilib chiqqan tugʻyon va hissiyotlar oʻquvchi qalbini ham hayajonga soladi.

Asarda yaqin tariximiz sahifalari, oʻzbek xalqining istiqlol arafasida boshidan kechirgan ogʻir kunlari, ozodlikning mashaqqatli yoʻli yoritiladi, hozirgi kunda maʼnaviy hayotimizga chuqur singib ketgan «Oʻz uyingni oʻzing asra», «Kuch—adolatda», «Shu aziz Vatan barchamizniki», «Tinchlik uchun kurashmoq kerak» singari purnoʻl gʻoyalari taʼsirchan tarzda tarannum etiladi.

Dostonda yuksak siyosiy daʼvatlar ham, oddiy insoniy tuygʻular ham oʻz ifodasini topa olgan. Shoir insoniyat bosib oʻtgan tarixiy taraqqiyot yoʻliga nazar tashlab, ezgulik va yaxshilik jaholat ustidan albatta gʻolib kelishiga, jahon hamjamiyati, sogʻlom fikr, sogʻlom kuchlar birlashib razolatni yengishiga ishonadi va kitobxonni ham ana shu muhim hayotiy gʻoyaga ishontira oladi. Shu maʼnoda, bu moʻʼjaz doston sof niyatli barcha kishilarni, ayniqsa, unib-oʻsib kelayotgan yoshlarimizni ogohlik va kurashga chorlab turadigan badiiy daʼvatnomadir.

*Abdulla Oripov,
Oʻzbekiston Qahramoni, xalq shoiri*

OGOHO BOʻL, DUNYO!

«Ogoh boʻling, odamlar!»— degan daʼvat hamisha bong urgandek yangrab turishi kerak. Faxrlanish mumkin va lozim boʻlgan bebaho qadriyatlar — oʻz mustaqilligimizni, tinchligimizni, jamiyatda millatlar, fuqarolar oʻrtasidagi totuvlikni asrang.

Islom Karimov

MUQADDIMA

*Bugun tongda xush turdim juda,
Dunyo goʻzal, olam osuda.*

*Osmon tiniq, osmon begʻubor,
Tiniqlikda ajib hikmat bor.*

*Jilmayib nur sochadi quyosh,
Baxtga eshik ochadi quyosh.*

*Salom olib kelgan sabolar,
Boshim uzra toʻkar duolar.*

*Orrudayin koʻz ochgan kurtak,
U tongdagi totli bir tilak.*

*Qush tilini qushlar bilsa ham,
«Qushlar tili» koʻngilga malham.*

*Oллоh tutgan gultoj goʻzallik,
Musavvirga muhtoj goʻzallik.*

*Koʻzlaringa sigʻmasa netay,
O, ona yurt, sadagʻang ketay.*

*Sen haqingda oʻylamoq sharaf,
Madhing yonib kuylamoq sharaf.*

*Hurlikda sen ko'arilgan taxt,
Abadiyat osmonida baxt.*

*Dardi dunyo zahmatkash, elim,
Mehri daryo mehnatkash, elim.*

*Birda quvnab, birda o'kindim,
Bugun dildan keldi to'kilgim.*

*O'tmishdagi uvoling haqqi,
Qonli kechmish, zavoling haqqi.*

*Tildan, dildan to'kilgan armon,
Balki bo'lar mo'jaz bir doston.*

*Avlodlarga va yo bir maktub,
Neki bo'lsa, bo'lolsin matlub.*

YASHASH BAXT

Farzandlarimiz, kelajak avlodlar bizdan shu o'lkani, shu muqaddas zaminni yana ham boy, kuchli va qudratli holatda qabul qilishlari uchun, biz buyuk ajdodlarimizga nisbatan qanday minnatdorchilik tuyg'ularini his etayotgan bo'lsak, o'g'il-qizlarimiz, kelajak avlodlar ham bizga nisbatan shunday minnatdorchilik tuyg'ularini his etishlari uchun lozim bo'lgan hamma ishni qilish — bizning fuqarolik burchimizdir.

Islom Karimov

*Har dilda hikmatning xazinasi bor,
Har tilda hurmatning ganjinasini bor.*

*Vale har so'zdan ham hikmat yaralmas,
Har husni sohibdan xush nur taralmas.*

*Har botir maydonda g'olib bo'lolmas,
Hurmatni talab-la olib bo'lolmas.*

*Yashashning sharti bor, odamlilik sharti,
O'zdan kechib yashar millatning mard.*

*Ayo do'st, kun keldi, keldi xo'p zamon,
Ona yurt bo'lmoqda ko'p dorilamon.*

*Har dilda jaranglar hurlik xitobi,
Vafodan boshlanar taqdir kitobi.*

*Momolar tilida shukrona oyat,
Bobolar tilida hikmat, hikoyat.*

*Yigitlar ochmoqda ishqning eshigin,
Kelinar quchmoqda baxtning beshigin.*

*Farzandlar bahordek balqib yasharlar,
Dilida quvonchi qalqib yasharlar.*

*Navoiy nazmidek totli bir kalam,
Dunyoni zabt etar o'zbek degan nom.*

*Mustaqil davlatning javohirlari,
Alpomish kelbatli bahodirlari.*

*O'zbek dovrug'ini doston qilguysi,
Minglarning mushkulin oson qilguysi.*

*Jannatiy diyorning jamolidek xush,
Hazrat Amir Temur kamolidek xush.*

*Dillarda yuz ochar inja bir savol:
«Bu yurtini kim qurgan?» Bolam, yodega ol!*

*Hurlikning ilk g'ishtin kimlar qo'yishgan,
Vatanni har nedan ortiq suyishgan.*

*Kimlar u, jonini o'qqa tik tutgan,
Ozodlik yo'lida o'zni unutgan?*

*Ne o'ylar bilmadim dildan o'tadi,
Ne nomlar necha bir tildan o'tadi.*

*Shu bois ushbu kun qo'limda qalam,
Oq qog'oz ustida quvonchim, nalam.*

*Unidim bizni ham kelgusi avlod,
Ehtirom, e'zorda etishgaylar yod.*

*Va bilgay ozodlik tushmas osmondan,
Uni deb kechishgan ne mardlar jondan.*

* * *

*Kecha yaralmagan bu ko'hna dunyo,
Erta tugamaydi olamda hayot.*

*Insonga qalb ato etganda Xudo,
Ne oldin yuz ochgan, quvonch yo faryod?*

*Haq qachon yaratgan Odam Atoni,
Bu savol yillarga sig'maydi hamon.
Odam Ato qilgan bitta xatoni,
Ming bir xil usulda takrorlar inson.*

*Baxt bermas aslida Olloh odamga,
Baxtli yashash uchun bergaydir imkon.
Kelibsan, xush kelding, yorug' olamga,
Baxtli yasholdingmi, ayting, ey inson?*

*Umr-ku, bandaga o'ichab berilgan,
Hoyu havasini bo'lurmi o'ichab.
Qani u jismiga sig'may kerilgan,
Qayga yetib bordi tulporin qistab?*

*Kinga ozor berdi, kimni asradi,
Ortida goldimi bir parcha bog'i?
Yoki talvasada ruhi, jasadi
Qabrida qorayib yotarmi dog'i?*

*Oilang osmonida so'hmasmi nuring,
Oiangga, onangga bo'ldingmi, fido?
Farzanding qalbida o'chmasmi qo'ring,
Ayt, eling ortingdan qilgaymi duo?*

*Orzu arimaydi tirik odamda,
Vale har savolga topilmas javob.
Yashash o'zi baxt-ku yorug' olamda,
Izingda qolsa gar tashakkur, savob.*

* * *

*Har ko'ngilning tiniq ko'zgusi,
Bobolarning asriy orzusi.*

*Ozodlikning oromi shirin,
Ozod inson kalomi shirin.*

*Hurlikni Haq xush ko'rar azal,
Hurriyatning bekati go'zal.*

*Go'zallikni asrash sharti bor —
Yashash kerak hamisha bedor.*

* * *

*Aytilgan so'z — otilgan o'qdir,
Shu o'qlardan ozorda dunyo.
Kimlar uchun mozorda mahzun,
Kimlar uchun bozorda dunyo.*

*Aytilgan so'z — otilgan o'qdir,
Gap otgani qalam tutmadim.
Yuragimda tovuqlar bir cho'g',
So'z sotgani qalam tutmadim.*

*Bu dunyoning tosh ekan boshi,
Lek qartaygan qayg'u dastidan.
O'lmay turib gohi bandasi,
Joy olarkan do'zax ostidan.*

*Bu dostonning so'zlari g'amli,
Anduhida elning ori bor.
Uvol ketgan ne-ne jonlarning,
Yaratganga qilgan zori bor.*

*Har insonning boshida osmon,
Har insonning poyida yer bor.
O'zgalarning rizqini olib,
Kim yashabdi olamda takror.*

*Kimdir bugun beshik egasi,
Ertasi bir kun yelkada tobut.
Quyunchi qirq yil yashamas axir,
Boshing egar lahzalik sukut.*

*Hur va baxtli yashashga asli,
Haq oldida haqli har banda.
Yaxshi kunga yarashmas lekin,
Qizitmayin chalgan chirmamda.*

*Uyg'oq odam uvol ketmagay,
G'afllat uning barin tutmagay,
Yovuzlikni u yengib yashar,
Mudragan murosaga yetmagay.*

*Ogohlarda orom yo'q, chindan,
Ogohlarga yordir Ollohim.
Ogohlikka chorlab dunyoni,
Oq qog'ozga to'kildi ohim.*

HURLIK YO'LI

Tarixiy xotirasi bor bo'lgan inson irodali inson. Takror aytaman, irodali insondir. Kim bo'lishidan qat'iy nazar, jamiyatning har bir a'zosi o'z o'tmishini yaxshi bilsa, bunday odamlarni yo'ldan urish, har xil aqidalar ta'siriga olish mumkin emas. Tarix saboqlari insonni hushyorlikka o'rgatadi, irodasini mustahkamlaydi.

Islom Karimov

*Ayo do'st, bu dunyo azal demishlar,
Xotira uyg'onsa go'zal demishlar.*

*Xotira uyg'onsa dardlar ham daryo,
Sabrlar, to'zimlar berarkan sado.*

*Xotira uyg'onsa o'zni taniysan,
Ham oppoq, ham qaro yuzni taniysan.*

*Ko'zingga ko'rinar sonsiz qabrlar,
Joningni og'ritar zulm, jabrlar.*

*Yolg'onning, riyoning boshlari xamdir,
Haqiqat hayqirmas, hamon ko'rkamdir.*

*Xotira uyg'onsa hayrat uyg'onar,
Suvratlar jim turar, siyrat uyg'onar.*

Uyg'onar jismu jon, uyg'onar iymon,
Nechun uyg'onmaysan, axir sen inson?!

Boshingga qandayin to'fonlar kelmish,
Qayg'udan, qahrdan ummonlar kelmish.

Tarix to'kar dema ko'hna dardlarin,
Tarix sog'inarkan asil mardlarin.

* * *

Yashayotgan odam uchun,
Jon bir taraf, shon bir taraf.
Adolatni tug'in har kun,
Temur kabi tutmoq sharaf!

Gohi dunyo, goh dard berib,
Olloh o'zi ko'rgay sinab.
El-yurt uchun ko'ksin kerib,
Kubro kabi ketmoq sharaf!

Bu dunyoda ikki eshik,
Hech kim qolmas abad yashab.
Manguberdi kabi mangu,
Vatan uchun o'lmoq sharaf!

Bu Vatanning ayoli ham,
Orlik talab, hurlik talab.
Jon chirog'in yurt yo'lida,
To'marisdek yoqmoq sharaf.

* * *

Hurlik yo'li uzun yo'ldir,
So'qmog'i ko'p, toshi ko'p.
Yuzlardagi kulgusidan,
Ko'zlardagi yoshi ko'p.

Bu yo'llarning oromi yo'q,
Zildek-zildek yuki bor.
Bu yo'llarning gadosi ko'p,
Bu yo'llarning beki bor.

Bu yo'llarda baxtin emas,
Armon quchgan ko'p bo'lgan.
Ozodlikni so'rab chiqib,
O'qqa uchgan ko'p bo'lgan.

Iztirobning isitmasi,
Chirmashgan ne jonlarga.
Bu yo'lning har qadamini,
Qabrdir qurbonlarga.

Uzoq tarix, uzoq o'l'mish,
Qalalarida qayg'usi.
Yangi tarix—eng go'zal his,
Bu hurriyat tuyg'usi.

* * *

Biz yaxshilik yarashgan xalqimiz,
Maydonda or talashgan xalqimiz.

G'anim quvna qilsang xatolar,
O'ylab topsa ichki nizolar.

O'shda uvol ketganlar bilmas,
O'zganda qon yutganlar bilmas.

Namanganda nizo chiqargan,
Farg'onada qazo chiqargan.

G'addor dushman o'yinlari ko'p,
Parkentda ham ko'zga soldi cho'p.

Ammo Xudo yaxshiga yordir,
Mardlariga o'zi hamkordir.

* * *

Yaxshi odam nomin aytib,
Ne-ne avlod yayraydi.
Xudo bersa minglab jonni,
Biitta odam asraydi.

Yangi tarix — o'rimishingda,
Faryod bordir, dod bordir.
Lek dardingga malham bo'lgan,
Joni fido zot bordir.

Seni talagan tuzum,
Qi p-qizil bayroq edi.
Aybing saqat, jon elim,
Qo'llaring qadoq edi.

Otiang paxtakor edi,
Onang paxtakor edi,
Egatlarda ezilgan,
Bolang paxtakor edi.

Paxtasin terib berding,
Chanog'ida tildilar.
Peshonangni sho'ridan,
Sharbat talab qildilar.

Qalbing o'rtab yotsa ham,
Tishlagandig tilingni.
«Paxta ishi» zarjiridan,
Kim bo'shatdi qo'lingni.

Bo'kadagi bo'ronlar,
Nola qo'shgan nolangga.
Shunda ko'zing tushganmi,
Oq ot mingan bolangga?

Olomonni oralab,
Tinchlikka tumor bo'lgan.
Ot ustida quyoshdek,
Millat uchun or bo'lgan.

Chiqqan kam, tushgan ko'pdir,
Riyoning tushoviga.
Namanganda kim kirgan
Yolg'iz, yov qurshoviga?

Ne azoblar ko'rmading,
Ming ohu faryod bo'lding.
Olloh madadkor bo'lib,
Kun keldi, ozod bo'lding.

Vale ayting, jon elim,
Davlatig kim tikladi?
Bugun dunyo tan olgan,
Shavkating kim tikladi?

Diling hamon qon bo'lar,
Boqsang bosgan izingga.
Tiling, dining, Navro'zing,
Kim qaytardi o'zingga?

Ulug'larning ruhini,
Kim uvoldan asradi?
Bu millat, bu Vatanni,
Kim zavoldan asradi?..

* * *

Aytilgan so'z — otilgan o'qdir,
Mehrimg mehrob, jonimda cho'g'dir,
Sendek suyuq suyanchim yo'qdir,
Otingdan aylanay, elim-ov!

Sen qo'llasang qoqilmas hech kim,
Asli sendek oqilmas hech kim,
Topgan gapim, aytarim shulkim,
Zotingdan aylanay, elim-ov.

Ko'zgu sinso ko'zlar kulmagan,
Yot tuproqda izlar kulmagan,
Ginada ham tilingdan tomgan,
Totingdan aylanay, elim-ov!

Sen tuproqqa tilmoch bo'lgan el,
Ona Yerga oqsoch bo'lgan el,
Kuyinchagim, quyosh bo'lgan el,
Yodingdan aylanay, elim-ov!

* * *

**Haqiqat oddiydir, hikmati buyuk,
Shoshmagan shod yashar, hurmati buyuk.**

O'zbekka o'rgatma, ko'p qilma gina,
Tomga ham chiqarlar zinama-zina.

O'n to'rt yil bo'yladik dunyo bo'yiga,
Qut-baraka kirdi o'zbek uyiga.

G'allasi beminнат, nefti beminнат,
Yuzin yorug' qilgan bu halol mehnat.

Hech kimdan hech narsa tilab olmadik,
Yo biroy nonini tunab olmadik.

Mashaqqat chekypniz, yashirmoq nechun,
Yo'qni yo'ndirdik deb oshirmoq nechun.

Biz hurlik yo'lida metin safdamiz,
Kim tinchlik istasa u tarafdami.

* * *

So'zlar ichra nurli so'zlar bor,
Tilga olsang yayrar jonu tan.
Dilda, tilda aytaman takror,
Sensiz yashab bo'lmaydi, Vatan!

G'oz ucholmas ovchi bor ko'lda,
O'zni ehtiyot qilar yaxshilar.
Alpomishi o'lmagan elda,
Yuzi yorug' kuylar baxshilar.

Momo yerning yuragi tinchlik,
Momo yerga keragi tinchlik.
Xudoyim ham to'ygan urushdan,
Xudoyimning tilagi tinchlik.

Boldek shirin tinchlikning toti,
Elim, hurlik baxtning bayoti.
Boshing uzra soyabon bo'lsin,
Oq kaptarning oppoq qanoti.

* * *

Xush niyatlar dillarga malham,
Yurt tinchligi — eng oliy tilak.
Ko'kdan tushmas ammo tinchlik ham,
Tinchlik uchun kurashmoq kerak!

Maydon doim mardniki bo'lgan,
Qo'rqoq qaqqashab panada o'lgan.
Tinch borming toleyi kulgan,
Tinchlik uchun kurashmoq kerak!

To'ylar to'yg'a ulansin desang,
Beshikka bek belansin desang,
Izingdan baxt elansin desang,
Tinchlik uchun kurashmoq kerak!

Dema bugun oshim yovg'ondir,
Shukur qilgin joning omondir,
Bir kun g'alva — qirq kun yomondir,
Tinchlik uchun kurashmoq kerak!

Momolarning duosi tillo,
Bobolardan duo ol, illo,
G'aflatni xush ko'rmaydi Xudo,
Tinchlik uchun kurashmoq kerak!

* * *

O'zbekiston — ko'zimdagi nur,
Kafing ochsang jonimni tutgum.
Bu dunyoga senda keldim men,
Bu dunyodan seni deb o'tgum.

Hurlik quchgan ozoda diyor,
Yo'q emasdir ozorlaring ham.
Shahid ketgan o'g'lonlar yorgan,
Bordir ma yus mozorlaring ham.

Qo'lda qalam, o'yg'a tolaman,
Qanday kuylay quvonch, dardlaring?
Ming dostonga mazmun berguvsi,
Sen deb jonni tikkan mardlaring.

Ming qo'shchiga bir boshchi bo'lgan,
To'rt tarafga tentak tortadi.
Bir jon bo'lib birlashsa gar el,
Yurida go'zal tonglar otadi.

Kimki neni o'rganmoq bo'lsa,
Ulug'larning merosi bisyor.
Ona zamin toptalmasa, bas,
Ruhlar bunda chekmasin ozor.

Aytilgan gap, otilgan o'qdir,
Ko'zgu tutar ko'nglim o'zimga.
Jonim Vatan, nur berar Olloh,
Sen deb aytgan har bir so'zimga.

* * *

Dil ko'zin ochmoqqa hidoyat kerak,
Vatan uchun har vaqt himoyat kerak.

Vatan u jismingdir, Vatan joningdir,
Qoningda qalqigan asl shoningdir.

G'am-anduh so'ramay tushar boshingga,
Og'ular qo'shilar zunda oshingga.

Balki u otangdir, balki bolangdir,
Vatan deb jon bergan mangu nolangdir.

Qadim Toshkent, dardlaring ham ko'p qadim,
Seni tinchlik beshigi deb atadim.

Ko'zin tikkan senga juda ko'p erur,
O'zin tikkan senga juda ko'p erur.

Razil to'lda tinchligingga qo'ydi choh,
Tuprog'ingda yotar necha begunoh.

Burchimulla, Yangiobod tog'lari,
Ko'ngillarni o'rtar armon dog'lari.

*Sizda oqdi ne mardlarning qonlari,
El-yurt uchun fido bo'lib jonlari.*

*Yurtim degan erlar elda bor bo'lsin,
Ruhlariga mangu orom yor bo'lsin.*

ASRAY BILGIN

Matbuot orqali ham, xorij safarlarida ham doimo takrorlayman — terrorga qarshi kurashish kerak. Birinchi galda, terrorchilarni tayyorlaydigan zamanga, g'oyaga, mafkuraga e'tibor berish, shu-larga qarshi kurashish kerak.

Islom Karimov

*Orzusi yo'q ko'kda ucholmas,
Kurashmagan quvonch qucholmas.*

*Tong otmasa, kun ham botmagay,
Yaxshilik ham yerda yotmagay.*

*Hurlik uchun kurashdingmi, ayt,
Oring uchun talashdingmi, ayt?..*

*Bahor har yil qaytib keladi,
Ko'hna qo'shiq aytib keladi.*

*Kelmas ekan har o'tgan kuning,
Qaytmas hatto chekkan har uning.*

*Bizdan qolsin shu ozod Vatan,
Avlodlarga eng obod Vatan.*

*Gul yuzida shabnamlar qolsin,
Qolsin, yaxshi odamlar qolsin.*

*Yaxshi mingta bo'lsa ham kamdir,
Bitta yomon — mingta motamdir.*

*Ogohmisan, ayt, dunyo,
Ogohmisan, ey odam?
Nechun unda ko'zing yosh,
Nechun unda boshing xam?*

*Sodda dunyo, g'o'r dunyo,
Peshonasi sho'r dunyo.
Tirik turib o'zingga,
Qaziydirsan go'r dunyo!*

*Ogohmisan, sen o'zi,
Gumrohman sen o'zi?
Tong sen uchun otmoqda,
Sen deb kular kun ko'zi.*

*Nechun axir bir-biring,
Tig'lashni xush ko'rasan?
Gul bo'lganda so'ldirib,
Yig'lashni xush ko'rasan?*

*Sodda odam, g'o'r odam,
Ko'zi ochiq, ko'r odam.
G'aflat beshigi harom,
Uyg'on endi, tur odam!*

*Tog'ni talqon qilar bo'lsang ham,
Qilni arqon qilar bo'lsang ham,
Ilondan bol tilar bo'lsang ham,
Kuch — aslida adolatdadir!*

*Boltam bor deb jallod bo'lmagin,
Quvonch boqsa faryod bo'lmagin,
Ming yil yasha, mayli o'lmagin,
Kuch — tafakkur, ma rifatdadir!*

Hech kim yo'qdan bor qilgan emas,
Keng dunyoni tor qilgan emas,
Ofiab oydan or qilgan emas,
Kuch — insofu diyonatdadir!

Navniholda chinorni ko'rgin,
Qaro tunda bedorni ko'rgin,
Ko'rsang — Parvardigorni ko'rgin,
Kuch — mehorda, muhabbatdadir!

Umring yo'li ko'p uzun emas,
Shukri borlar hech mahzun emas,
Yashash asli bu afsun emas,
Kuch — sevgida, sadoqatdadir!

* * *

Bugun qayg'u boshimda botmon,
Erti shamol senga ko'chirar.
Terror — asli shafqatsiz to'fon,
Tinch uyingda chiroq o'chirar.

Mag'ribdami va yo Mashriqda,
Ozor topsa odam bolasi.
Qulog'ingni solar qomatga,
Yetib kelgan ohu nolasi.

Dertlar, bo'lsin umring ziyoda,
Kinga yoqmas xush orzu, niyat.
Tomoshaga o'ch bu dunyoda,
Tomoshabin bo'lmoq jinoyat.

* * *

Xavotir har kuni, har jonda yashar,
Yuzlardan, ko'zlardan qayg'ular toshar.

Nogahon portlagan bomba ovozi,
Samoda yana bir motam parvozi.

Ko'ngilga hattoki, sig'mas ekan qil,
16- fevral... 1999- yil...

Dunyoga tarqatdi ne shum xabarlar,
Qo'llari, dillari, tili zaharlar.

Amalga oshmadi shum niyatlari,
Omondir, omondir, yurtning sarvari!..

* * *

Elim degan yurt sarkorin,
El duosi asragaydir.
Haq yo'linda jon nisorin,
Haq nidosi asragaydir.

Baxt etagin tutqazguncha,
Oylar o'tar, yillar o'tar.
G'am quvlagan o'jiz odam,
Qochib qancha qonlar yutar.

Otam derdi: — Ochgil ko'zni,
Yerni ko'rgin, pastga tushgil.
To'rt odamga to'g'ri so'zni,
Topib ayimoq o'zi mushkul.

Ilon kirar, chayon kirar,
Bilib-bilmay ochsang bag'ir.
Qo'llamasa Xudo agar,
El oldida yurmoq og'ir.

El koriga yelka tutgan,
Yurt yoviga ko'ksi qalqon.
Bu hikmatni kim unutgan,
Ko'kdan tushmas yaxshi inson.

Sen deb kuysa, yongin sen ham,
Qarsak axir qo'sh qo'lniki.
Panohingda asra egam,
O'zbekiston hur elniki!

* * *

Azal hikmat, go'zal hikmat,
Bizlardan ko'p yashar hikmat.
Odam bo'lsang olgin ibrat,
O'z uyingni o'zing asra!

Qozon to'kmas kuyasini,
Qush asraydi uyasini,
Tulpor qo'rir biyasini,
O'z uyingni o'zing asra!

Yerni asrar osmoni bor,
Har jonzotni makoni bor,
Asramoqqa imkoni bor,
O'z uyingni o'zing asra!

Tuproq sira tog' bo'lmagay,
Bog'bonsiz hech bog' bo'lmagay,
Yolg'on maqto'v yog' bo'lmagay,
O'z uyingni o'zing asra!

O'rgimchakning to'ri bo'лма,
Ochiq ko'zning ko'ri bo'лма,
Odamzodning g'o'ri bo'лма,
O'z uyingni o'zing asra!

Ostonangga oring posbon,
Bo'lsin tanda boring posbon,
Bu Yaratgan hukmi, inson,
O'z uyingni o'zing asra!

* * *

Har kimning havasi, orzusi bisyor,
Ne bo'lsa mo'lj bo'lsin, bari sizniki.
Bir so'z bor barchamiz aytaylik takror,
Ushbu aziz Vatan barchamizniki!

Jannatiy bog'lari bog'boni bilan,
Cho'lu saholari karvoni bilan,
Quvonch, qayg'ulari, armoni bilan,
Ushbu aziz Vatan barchamizniki!

Turfa til, turfa din, turfa millati,
Birlikda, hurlikda ular zymati,
Bor bo'lsin sharqona qadri, qimmat,
Ushbu aziz Vatan barchamizniki!

Yo'l ravon, dil yorug' yaxshi hamrohdan,
Biz uni asraylik, yovdan, gunrohdan,
Tinchligin tilaylik qodir Ollohdan,
Ushbu aziz Vatan barchamizniki!

* * *

2001- yil, 11- sentabr...
Dunyo shum xabardan titradi zir-zir.

Nyu-York va Vashington,
Jahannam o'fida qoldi nogahon.

4613 kishi...
80 mamlakatning fuqarolari.

Oh boshdan uchdi-ku, odamzod hushi,
80 mamlakatning g'am, nidolari.

*Umring yashab o'tsang, o'tim mehmondir,
Dunyoga keldingmi, ketmoq ayondir.*

*Taqdirga tan berar, dilbandlaring ham,
Motanga ko'nika farzandlaring ham.*

*Yosh ketsang, nogahon ketsang qiyindir,
Terror bu qabohat, yovuz o'yindir.*

*Bir kun yashamaydi bu dunyo ohsiz,
Uning aziyati sonsiz, sanoqsiz.*

*Gohi yerda izg'ir, gohi osmonda,
Terror xavfi bugun butun jahonda.*

*Erta kimni nima kutmoqda, nima?..
Hech nima deyolmas, hech kim, hech nima?..*

ARMON

2004- yilning 29—30- mart va 1- aprel kunlari O'zbekistonimizda 9 nafar ichki ishlar xodimi va 5 nafar fuqaro terror atalmish jaholatning qurboni bo'lgani ham shu haqda iztirob bilan o'ylashga da'vat etadi.

Islom Karimov

*Quyosh siz uchun ham kulib chiqardi,
Oy ham tuningizga chiroq tutardi,
Uyda jondek shirin jonlar kutardi,
Haqqingiz bor edi baxtli yashashga.*

*Biringiz Kasbida tug'ilgan Erkin,
Muhiddinsiz qolgan Surxon ne derkin?
Ko'hna Shosh sog'inlar Qodirdek o'g'lin,
Haqqingiz bor edi baxtli yashashga.*

*Samarqand ko'kidan uch yulduz uchdi,
Faxriddin, Otabek, Mansur yer quchdi,
Uch baxtning ko'ziga nogoh cho'p tushdi,
Haqqingiz bor edi baxtli yashashga.*

*Vahobiddin Parkent o'g'loni edi,
Zaitbek Qibrayning qalqoni edi,
Azizjon Yangiyo'l dostoni edi,
Haqqingiz bor edi baxtli yashashga.*

*Siz yo'q ostonalar ohi o'rtaydi,
Qayg'ular qon qusib, quvonch qoraydi,
Qabringiz qoshida osmon toraydi,
Haqqingiz bor edi baxtli yashashga.*

*Siz Vatan ko'kida so'nmas quyoshsiz,
Elning yodidasiz, ruhan dildoshsiz,
Sog'inchsiz, armonsiz, bitmas ko'z yoshsiz,
Haqqingiz bor edi baxtli yashashga.*

*To'qqiz uyda to'qqiz ona,
To'qqiz o'g'lin yo'qlaydi.
Bag'ri butun odamlar,
Bu yo'qlovni uqmaydi.*

*O'qqa uchgan bolam-ov,
Yo'qqa ko'chgan bolam-ov,
Yuragimning yoniga
Chiqdi chipqon bolam-ov!*

Sening o'lganing yolg'on,
Mening qolganim yolg'on,
Senga tekkan o'q, bolam,
Mening jonimni olg'on!

O'g'ling o'rnatib kelar,
Qizing yumalab kelar,
Ko'zlarining qonlari
Yuzdan dumalab kelar.

Yo'qlab borsam qabringga,
Qayrimaysan, bolam-ov!
Tuproq onang bo'ldimi,
Ayrilmaysan, bolam-ov!

Jon bolam, jonim bolam,
Mangu armonim bolam!
Qonimda qirq yil yozsam
Bimas dostonim, bolam!

* * *

Sening darding botmon, ohlaring botmon,
Yuzingdagi ajin g'amning shonasi.
Joningni qanchilar ming bitta armon,
Mushki-par, munisam, O'zbek onasi!

Mehring-la iylangan ayigan har so'zing,
Sen emasmi, ezgulik parvonasi?
Tabiatning mo'jizasi sen o'zing,
Sen nurning chashmasi — O'zbek onasi!

Har ishda Haq degan, haqgo'y, xudojo'y,
Soflik sadafida durning donasi.
Ulug' yo'l boshida turgan duogo'y,
Mehribon, daryodil O'zbek onasi!

Ko'z yoshlaring artgin, bir bora jilmay,
Ey, mehri ummonim, dil durdonasi.
Hurlikda endi men baxtingni kuylay,
Millatim onasi — O'zbek onasi!

* * *

Aytilgan gap, otilgan o'qdir,
Mayda gaplar sig'mas dilinga.
Aybsiz ketgan ruhlar chorladi,
Qalam oldim nogoh qo'limga.

Demang tildan doston to'kildi,
Dildan og'riq, xazon to'kildi.
Qirqta emas, bir edi jonim,
Vale qirq ming joydan so'kildi.

Yer yuzida loqal bir kun,
Odam nohaq o'lmagan kun yo'q.
Ko'lna dunyo ko'lna yarangni,
Nahot bir kun tilmagan kun yo'q.

Qodir Olloh, bandalar o'jiz,
O'zing qo'lla, yaxshiga naf qil!
Yer yuzidan, ko'kning ko'zidan,
Terror degan baloni daf qil.

Tinch tonglarning toza yuzidan,
Sen uyg'onib, nur tergin, inson.
Quyoshga boq, o'li ko'zidan,
Qalbing uchun qo'y tergin, inson!

O'tgan kuning — o'tgan umringdir,
Omonliging shukrin qilsang-chi!
Hatto qush ham uyasin asrar,
Odamliging fikrin qilsang-chi!

* * *

*Qordan qadr so'rama — erib ketar,
Xazon bolish bo'lmaydi, chirib ketar.
G'anim uydin quvonching terib ketar,
Xudo bergan baxtingni asray bilgin.*

*Haqdan so'ra, mushkuling oson bo'lsin,
Darvozang och, uyingda mehmon bo'lsin.
Ostonangda oriya posbon bo'lsin,
Xudo bergan taxtingni asray bilgin.*

*Toshdan mehr tilanma, dil to'kilar,
Bevafoing bag'rida baxt o'kinar,
Oqilga ham, odilga ham el yukinar,
El o'g'lsan, ahdingni asray bilgin.*

*Asray bilgin, osmoningni asray bilgin,
Bog'ing go'zal, bog'boningni asray bilgin.
Xush niyali har millat siqqan bu yurt,
Karvon bo'lsang sorboningni asray bilgin.*

*Bo'lar-bo'lmas odamga bo'zlayverma,
Haqiqatni har dildan izlayverma,
Qo'ling yetmas manzilni ko'zlayverma,
Xudo bergan naqdingni asray bilgin.*

*Bu dunyoning beliga belbog' yetmas,
Biz ketamiz dunyodan, dunyo ketmas.
Mudrab qolsang otar tong, seni kutmas,
Elim, safda shahdingni asray bilgin,
Xudo bergan baxtingni asray bilgin.*

* * *

*Ne qirg'in-barotni ko'rmadi dunyo,
Turfa razolatlarni tig'in qayradi.
Tarix ko'ksin tilar o'qli bir nido,
Qonni daryo qilib Chingiz yayradi.*

*Salib yurishlarning hadsiz janglari,
Begunoh ellarni qildilar qurbon.
Bugun cherkov inkvizitsiyasin,
Bashar xotirasi la'natlar hamon.*

*Fashizm balosin qurboni bo'ldi,
Million-million odam, bu yer, bu osmon.
Bog'lar xazon bo'ldi, orzular so'ldi,
Qalblarning yarasi bitmagan hamon.*

*Ilashib xayohing aravasiga,
So'ngra Kommunizm o'ynatdi qamchi.
Olam quloq soldi tarallasiga,
Bari sarob ekan, bari aldanchi...*

*Dinni niqob qilgan g'arazgo'ylar ham,
Shubha yo'q qulaydi o'zin chohiga.
Kelajak oldida, tarix oldida,
Hali javob berar o'z gunohiga.*

*Xush tilak xush yoqar, hamisha matlub,
Mardlar maydon ichra to'kmaydi ko'z yosh.
Kun kelar, terror ham bo'ladi mag'lub,
Ezgulik boqiydir, boqiydir quyosh.*

Mening hayotim — ish, uy. Shu xalq, shu millat tashvishi. Menda yana nima bor? O'ylayman. Ko'p o'ylayman. Kechalari uxlolmasdan chiqaman. Mening ham bolalarim, nabiralarim bor. Men ham bolalarimning baxtini ko'rmoqchiman. Nabiralarimni uylantirmoqchiman.

Islom Karimov

*Bu dunyoga biz hammaniz mehmonniz,
Har bir odam yaxshi fikr, o'y qilsin.
Shohmi, gado orzusi bor insonniz,
Duo qiling, har bir banda to'y qilsin.*

*Farzand bersa, bo'y qo'shilsin bo'yiga,
To'y yarashar har o'zbekning uyiga.
Yaxshi niyat, yarim davlat, omin deng,
To'ylar qilsin, el-yurt borsin to'yiga.*

*Derlar umr — bu Ollohning in'omi,
Nabiralar inson umrin davomi.
Xush kunlarning sadosidir aslida,
Yaxshilarga yaxshilarning salomi.*

*Nabirasin qo'llaridan yetaklab,
O'zi yurgan yo'llaridan yetaklab,
Gijinglagan tulporlarga mindirsin,
Haq yo'lida dillaridan yetaklab.*

*El dardidan ortarmikan o'zi hech,
Orlishiga yetarmikan ko'zi hech?
El dardiga joni fido insonni,
Qodir Xudo, mushkulini oson yech.*

*Nabirasi umrining xush navosi,
Armon oiliq shirin dardning davosi,
Duo qiling, podsholar ham to'y qilsin,
Niyatiga yetsin Islom bobosi!*

*Yo'l yursang har yo'lning poyoni bo'lgay,
Har ishning yakuni, ayoni bo'lgay.*

*Dilning izhoriga so'z kerak doim,
So'zning me'yoriga tuz kerak doim.*

*Aytayin faxrinni qo'ymasdan nuqta,
Jonimiz, shonimiz, el tutgan tug'da.*

*Tafakkur tog'lari elning tayanchi,
Hikmat bog'larida bordir suyanchi.*

*Hurligin asraydi jisnu jonida,
G'urur bor, hurmat bor, o'zbek shonida.*

*Mayli, bir bor aytay, aytayin ming bor,
Avlodlar biz bilan qilgay iftixor.*

*Hurlik eshigini ochgan deb aytar,
Qullik zanjirini yanchgan deb aytar.*

*Olloh ulug'lagan o'zbek nomini,
Ogohlari qo'rir el oromini.*

*Sen orlindan ta'na toshin otma, g'anim,
Nomard azal mardlarga tik yo'liqmaydi.
Olloh shohid, bilgil, xalqim, jon Vatanim,
Oromingni ogohlaring qo'riqlaydi.*

Odam yashar, so'z yashaydi armon degan,
Shu o'g'lingdek bo'lar asli sulton degan.
Jon kerakmi, jonim senga qurbon degan,
Oromingni ogohlaring qo'riqlaydi.

O'zbekiston ko'zimizda yongan shamdir,
Fidolaring kipriklardan tushmas namdir,
U otamdir, u onamdir, u bolamdir,
Oromingni ogohlaring qo'riqlaydi.

Noni qattiq, mayli, oshi yovg'on bo'lgan,
Mardlar doim yurti uchun qalqon bo'lgan,
Kim aytibdi, sotqin kaslar inson bo'lgan,
Oromingni ogohlaring qo'riqlaydi.

Jonim Vatan — jonimizning chashmasidan,
Sen onaning oppoq sochi, ko'z qoshidan.
Millatimning eng keksasi, eng yoshisan,
Oromingni ogohlaring qo'riqlaydi.

Biz bir emas, bizlar yuz ming, biz millionmiz,
Biz o'zbekmiz, biz Temuriy Turkistonmiz,
Bizlar ham hur tug'ilg'onmiz, biz insonmiz,
Oromingni ogohlaring qo'riqlaydi.

* * *

Doston umri inson umriga o'xshar,
Bir satri jilmaysa, bir satri qaqshar.

Doston ham tushmaydi asli osmondan,
Darddan to'kiladi, to'kilar jondan.

O'ylab topilgan deb o'qimang albat,
O'ylagan dardlarim biidim men faqat.

Bori shu, qog'ozda, bandaman o'jiz,
Endi bu daftarni yopmog'im joiz.

O'qib uqqanlarga rahmatim bisyor,
Ham omon bo'lsinlar, bo'lsin Xudo yor!

2005 - yil.

MUNDARIJA

Oqib ketgan armonlar	3
Otamning o'kinchi	27
Ogoh bo'l, dunyo	62

Mahmud Toirov

UCH DOSTON

Muharrir *Sh. A'zamov*
 Musavvir *R. Zafarov*
 Musahhih *R. A'zamova*
 Kompyuterda tayyorlovchi *N. Jalilova*

Bosishga ruxsat etildi 06.10.2006. Qog'oz formati 84×108¹/₃₂.
 «Tayms» gamituras. Ofset bosma usulida bosildi. Shartli b.t. 5.5.
 Nashr. t. 5.25. Tiraji 4000. Buyurtma №07-37.
 Bahosi shartnoma asosida.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining
 «O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida bosildi. 100129,
 Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.